

Bu tog' burgutini otasi bir paytlar ekanida Mixin tepasidagi Qoratoshdan polapon holda olib kelgan edi. Shu-shu burgut uyda emin-erkin yuradigan bo'ldi. Abdurahmon uni asta-sekin ovga o'rgatdi. Lochin avval chumchuqlarni ovlashni o'rgandi, keyin uni Qizilqumda bo'riga ham solib ko'rishdi. Burgut bir tepishda bo'rining belini sindirib yubordi. Shu-shu tog' burguti oilaning bir a'zosiga aylandi.

Endi Abdurahmon yovdan xalqni ozod etmoq uchun kurashga chog'lanardi. U uyida otasidan qolgan tog' burgutini alohida parvarish etardi. Ko'pincha burgutni mashq qildirish uchun uloqni so'yib, oldiga tashlardi. Burgut o'ljasini qoyaga ko'tarib chiqar va Ko'hnabozor qishlog'i tomon uzoq-uzoqlardan qarab-qarab qo'yarkan, uloq go'shtidan to'yganicha yer, ortig'ini o'sha yerda qoldirar, birozdan so'ng quzg'unlar loshning qolgan-qutgani uchun talashishga tushishardi. Burgut ba'zan ko'kdan uloqni tashlab yuborar, oradan bir oz o'tkazib esa o'zini o'qdek uning orqasidan otar va panjalariga ilingan uloqni mahkam changallagancha yana qoyalar tomon uchardi.

...Oftob ufq tomon shoshilardi. Burgut tog' ustida charxpalak aylana yasab, pastlay boshlar, yerga yetishiga ozgina qolganda ko'k sari tikka ko'tarilardi.

Tog' burgutining shiddatidan Abdurahmon zavqBlaBnarBdi. Burgut havoga ko'tarilishi bilan qora quzg'unlar o'zBlarining in-inlariga kirib ketardi, qoronBg'i tushBguncha o'lakBsaxo'rlar pana-panada uni zimdan kuzaBtishardi.

* * *

Abdurahmon o'rta bo'y, och sariq yuzli, yelkasi keng, boshi uzunchoq, har bir mushti handalakdek, ko'zlari o'tkir yigit edi. Bu jussa otadan meros bo'lib, u otadek qo'rqmas va botir bo'lib o'sgandi. Abdurahmon ot ustida doim tik o'tirar, hamisha otlq yoki piyodani bir chaqirim naridan bemalol ko'rib, tanib olardi. Ichki sezish hissiyoti kuchli edi unda.

Buxoroda savdo qilib yurib, kechki payt karvonBsaroyning kichik xonasida mollarini taxlab o'tirganda bir bahaybat afg'on yigiti hujraga indamasdan kirib keldi-da, miq etmasdan uning narsalaridan tanlab ola boshladi. Abdurahmon yigitning belidagi xanjarga ancha vaqt tikilib turdi. Nihoyat yigit tanlab olgan mollarini olib chiqib ketishga chog'langan payti Abdurahmon uning orqasidan belini mo'ljalab tepdi. Afg'on yigiti joyida yiqilgandi, bora solib uning bo'ynini orqasiga qayirdi. Bosqinchining ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi. Yana bir lahzadan so'ng uni o'ldirib qo'yishini anglagan Abdurahmon beixtiyor panjalarini bo'shatdi. Yigit so'kina-so'kina oshig'ich tarzda xonani tark etdi. Bu yigirma yoshli Abdurahmonning ilk bor o'z mulki, erki uchun kurashishi edi. Afg'on yigitining sheriklarini boshlab kelishi mumkinligini his qilgan Abdurahmon mol-mulkini olib, kechasi karvonsaroyni tark etdi. Shu-shu otasining erk, ozodlik haqidagi gaplari Abdurahmonning quloqlari ostida tez-tez jaranglab turadi. Qaerda yurmasin, qaysi millat-elat ichida bo'lmasin, doimo savdo-sotiqda to'g'rilikka harakat qildi, hech kimni aldamadi. Shu tufayli Abdurahmonning Buxoro, Samarqand, Jizzax shaharlarida juda ko'p ishongan do'stlari, oshnalari bor.

* * *

Sankt-Peterburgdagi imperator saroyi. Ulkan bo'lmada imperator Osiyo xaritasi oldida o'ychan turgancha papirosini bosib-bosib chekmoqda.

Harbiy vazir papka ko'tarib kirdi. 1867 yil yozida Rossiya imperatori Aleksandr II Turkiston harbiy okrugini ta'sis etish haqidagi farmoniga imzo chekkandi. Harbiy vazir farmonni charm xat jildga solganicha saroyning chekka xonasida o'tirgan general-adKjyutant fon Kaufmandan suyunchi olgani yugurib borardi. Zero Kaufman imperator farmoniga ko'ra O'rta Osiyoning Rossiya tarkibiga kiritilgan hududlariga "Yarim podsho" etib tayinlangan edi. "Oltin yorliq" egasi fon Kaufman faqat podshoga bo'ysunardi.

Bu xabardan general shunchalik quvondiki, uning shodligini qalam bilan ta'riflab bo'lmaydi.

"Yarim podsho" o'sha kuni o'z uyida bu yorliqni katta tantana bilan nishonladi. Katta boyliklarga ega o'lka endi uning ixtiyorida edi.

Qani, vazir janoblari, ushbu qadahni imperatorning salomatligi uchun ichsak. Angliyadan oldin u yerga yetib bormoq biz uchun saodat erur, deya qadah so'zi aytdi general fon Kaufman.

Uning so'zlaridayam jang ishtiyiqi sezilib turardi. Shu payt xonaga harbiy vazirning xotini kirib keldi. Fon Kaufman unga ta'zim qildi.

Xonim, sizni ko'rmoq baxtiga muyassar bo'lganimdan baxtiyorman, dedi u nazokat bilan.

Vazir qadahidagi aroqni bir ko'tarishda ichdi-da, katta stol ustida yoyilib yotgan Osiyo xaritasi ustiga engashdi. Xonim esa Kufmanga tabassum hadya etdi. Harbiy vazir xuddi o'lkani o'z qo'lida ushlab turgandek, Amu va Sir oralig'idan ko'z uzmasdi. Fon Kaufmanning butun fikri bir amallab xonimni gapga solish bilan band edi.

Sizga, janob Fon Kaufman, katta vakolatni amalga oshirmoq uchun katta armiya ham zarur bo'ladi. Men ertagayoq buyuraman: 8 ming kishilik armiya, 16 ta to'p va 10 ming miltiq beriladi. Shuncha o'q-dori bilan xalqni bo'ysundirmoqni Temurlang yurti Samarqanddan boshlamoq kerak.

Xonim esa eri yana urush mavzuida gap boshlaganini tushungan zahoti asta xonani tark etdi.

Ikki harbiyning uzoq davom etgan suhbatini O'rta Osiyoni bo'ysundirishga qaratildi.

Oradan bir hafta o'tib Kaufman Samarqandga jo'nab ketdi. "Yarim podsho" poezdda Samarqand sari kelar ekan, Jizzaxdan o'tgach, Sangzar daryosi oqib turgan ko'priq ustiga kelganida Morguzar tog'iga juda uzoq tikilib qoldi. Bu tog'lar toshi uning ko'ziga juda katta qo'shin bostirib kelayotgandek bo'lib ko'rindi. General o'zini juda horg'in sezdi. Atrof esa juda maftunkor edi. Odamlar esa bog'larda meva-cheva terish bilan band. Uzoqdan elas-elas notanish kuy-qo'shiq eshitilardi.

General Samarqandgacha atrofni tomosha qilib bordi. Qir-adirlar to'la qo'y-qo'zi, uzoqlarda sag'rini yaltirayotgan mollar o'tlab yuribdi.

Fon Kaufman odamlarga Ivan Grozniy haqidagi hikoyalarni aytishni yaxshi ko'rardi, bu bilan u go'yo o'zini Ivan Grozniyga tenglashtirardi.

Fon Kaufman o'ziga berilgan vakolatdan keng foydalandi, u bir vaqtning o'zida ham harbiy qo'mondon, ham prokuror va ham moliya vaziri edi.

O'sha paytlari Samarqand Buxoro amirligi tarkibida edi.

General Samarqandga kelgan kunioq amir qo'shinBlariga qarshi harakat boshladi. Harbiy taktikasi bo'sh bo'lgan amir qo'shinini yengish uncha qiyin bo'lmadi. Cho'pon ota tepaligida amir qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Shundan keyin Amir

Muzaffarbekning obro'yi tushib ketdi. Amir qo'shini rus askarlarini to'xtata olmadi. Amirning 15 ming otlq, 6 minglik piyoda

armiyasi rus armiyasiga dosh bera olmadi.

Amir Muzaffarbek Qizilqumga qochdi. Aholi orasida norozilik kuchaydi. Qo'zg'olon boshlandi. Bu esa Kaufmanga qo'l keldi. U Samarqandga o't qo'yirdi, shahar talon-taroj etildi. Fon Kaufman Sankt-Peterburgga, imperator nomiga telegramma jo'natdi: "Sartlar o'z-o'zini qirmoqda. Biz ularni osongina bo'ysundirdik".

Imperator Aleksandr II generalni orden bilan mukofotladi. Amir Muzaffar Kaufman oldiga bosh egib keldi. Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshon daryosining yuqori qismi Rossiyaga berildi. O'lka deyarli batamom fon Kaufman ixtiyoriga o'tdi, amir esa orden egasi bo'ldi.

O'lkada mustamlakachilarga qarshi xalq qo'zg'olonlari qariyb ellik yil davom etdi. Albatta, buning siyosiy, iqtisodiy asoslari bor edi. O'lkada xalq turmushi nochorlashdi, shart-sharoiti yaxshi joylarda "Rus qishloqlari" barpo etildi. Imperatorga yoqmagani rus mujiklari Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Qo'qon, Jizzax shahar va qishloqlariga ko'chirildi. Fon Kaufman hamma yirik qishloqlarda o'z pristavlarini tayinladi.

* * *

Oradan bir-ikki oy o'tgach Rossiyaning turli o'lkaBlaridan Turkiston tomon ruslar ko'chib kela boshladilar. Samarqandda azaldan ham bir necha ming nasroniylar yashardi. Shaharda Amir Temur davrida ham nasroniylar bo'lib, ular shaharning alohida dahasida hayot kechirar, mahalliy aholi bilan inoq yashardi.

O'lkada asta-sekin rus qishloqlari paydo bo'ldi.

Qoratosh atrofi yong'oq, do'landa, olma, o'rik, shaftoli, uzum bilan qoplangan. Nurota tog' yonbag'ridagi eng xushmanzara joy atrofidagi qishloqlar Mixan, Qulba, bir tomon esa Katta Bog'don va Ilonchi. Shu oraliqda rus pristavi Barillo uchun oppoq qo'rg'on qurildi. Qo'rg'on ichidagi o'n xonali bino juda keng, derazalari katta, romlarga guldor oyna qo'yilgan. Derazaning tashqarisidan quyoshni to'sadigan ravoq o'rnatilgandi. Bu yerdan Ko'hnabozor qishlog'i kaftdek ko'rinib turardi. Xonalarda sap-sariq qandillar oltindek tovlanardi. Hovliga esa o'nlab archalar go'zallik baxsh etardi. Favvoralarda suvlar raqsga tushardi. Barillo xotini va qizi bilan o'ziga atab qurilgan oppoq qo'rg'oniga ko'chib keldi. Qo'rg'oniga tog' orasidagi chashmadan tarnov orqali suv olib kelindi. Tog' yon bag'rida esa shamol yordamida ishlaydigan, elektr energiyasi yetkazib beruvchi motor o'rnatildi. Xonalarda elektr lampochkalari charaqlab turardi. Pristav ko'hnabozorlik Nodir shilpiqni o'ziga tilmoch qilib tayinladi. Nodir bir necha vaqt Rossiyada yashagan, ularning tilini bilardi.

Barillo och sariqdan kelgan, ko'kko'z, betlarini sepBkillar qoplagan, yaltirbosh, qirq-qirq besh yoshlardagi kishi edi. Uning xotini va qizi yopiq aravadan tushganda esa erkaklar ulardan ko'z uzolmay qolishdi. Ona-bola yupqa harir ko'yulakda bo'lib, go'yo butun tanalarini ko'z-ko'zlardilar. Hali bunday holatni ko'rmagan erkaklarning hirs qo'zg'aldi.

Nodir tilmochning bir ko'zi g'ilay bo'lsa-da, uncha-muncha rus ayollarini aldashni qotirardi. Oradan ikki oy o'tib, Barilloning Jizzaxga ketganini aniq bilgan tilmoch kechasi uning qizini daraxtzor orqasiga olib bordi. Buloq yonidagi tuyatosh ustida qo'lbola vino bilan mehmon qildi. Qiz vino ta'sirida ancha sarxush bo'lib qoldi. Nodir uni og'ushiga olib erkalay boshladi. Qiz xandon otib kuldi. Nogahon qiz qo'lini cho'zib Nodirni o'zi tomon torta boshladi va:

Voy, sen balosan-ku! dedi g'amza aralash.

Nodirning butun badanidan ter chiqib ketdi. Qiz esa yulduzli osmonga tikilgancha jim yotardi...

Qiz tilmochga ortiqcha qarshilik ko'rsatmadi. Nodir esa tun bo'yi uni o'z og'ushidan chiqarmadi. Ertalab qiz joyidan zo'rg'a turdi, uning oyoqlari shishib ketgandi. Bunday pinhoni uchrasuvlar keyin ham takrorlanib turdi.

Qishloqdagi qo'zg'olonga tayyorgarlikdan xabar topib qolgan tilmoch qiz orqali bu xabarni pristav Barilloga yetkazishni niyat qildi. U har kechani qizning quchog'ida o'tkazardi. Bu sir asta-sekin boshqa yigitlarga ham oshkor bo'la boshladi. Qiz qishloqdagi boshqa yigitlarni ham shu usulda yo'ldan ura boshladi. Bundayin fohishabozlikni ko'rgan osmondagi to'lin oy ham uyalganidan bulutlar orasiga yashirindi. Ammo ko'kda oy uyalsa uyaldi, qiz uyalmadi.

Pristav Barillo o'zi bilan bir guruh muhandislar, kartograflar, yer qazuvchilarni olib kelgan edi. Ular Ko'hnabozordan uzoq bo'lmagan Qoratosh ustidagi Burguttog' atrofidagi yer moyi olishga kirishdilar. Mahalliy aholi buloqlardan chiqayotgan suvda issiq yog' borligini bilardi, lekin uni ajratib olinmasdi. Ikki-uch rus Burgutqoya va Sokinlik darasidagi buloqlarda qumlarni yuvib, sariq kukunlarni ajratib olin boshladilar. Muhandislar va kartograflar esa qishloqlarni xaritada tushirishni boshlab yubordi. Tez orada tayyor bo'lgan xaritalar Peterburgga jo'natildi.

Rus qishloqlari Jizzax va Forish atrofida ko'paya bordi. Jizzax va Forish o'rtasida pochta aloqasi paydo bo'ldi. Gazetalar Rossiyaning turli joylarida ochlikdan odamlar o'layotganini yozishardi. Sil kasali bilan kasallanganlardan bir necha rus oila Bog'don, Ko'hnabozor qishloqlariga ko'chirib keltirildi. Bu o'lkalarda xalq bu kasallikni aslo bilmas edi. Kasal rus bolalari bilan qishloq bolalari ertadan kechgacha beshtosh, chillik o'ynashar, buloq suvlarida cho'milishar edi. Natijada bu dard asta-sekin bog'donliklarni ham o'z domiga torta boshladi. Odamlar o'limi ko'paydi. Ayniqsa sil kasalligidan ko'p odam qazo qildi. Odamlar bu kasallikdan qutilish uchun Samarqand, Payariq, Chinoz, Qarshi, hatto Buxoro tomonlariga ko'chib keta boshlashdi. Asta-sekin soyda suv kamayaverdi, ekin-tikin hosil bermay qo'ydi.

Abdurahmon Samarqanddan qaytishda Jizzax bozoriga kirdi. Maqsad bolalariga qand-qurs olish edi. Xotini to'y uchun zarur narsalar tayinlagan. Bir qismini Samarqanddan xarid qildi. Abdurahmon bozordan xotiniga haqiqiy marjon sotib oldi-da, cho'ntagiga solib qo'ydi va qishlog'i tomon shoshildi. Uning odati shunaqa: hech qaerda uzoq turolmaydi, o'z qishlog'ini sog'inadi. Bugun Abdurahmonning kayfiyati o'zgacha. Negaki, jizzaxlik Nazarxo'ja eshon bilan choyxonada bir choynak choy ustidagi suhbat uni quvontirib yuborgandi. Xalq eshonga juda suyanadi.

Eshon qo'yarda-qo'ymay Abdurahmonni uyiga olib ketdi. Eshon mehmonxonasidagi dasturxon chetida "Sadoyi Turkiston" gazetalarini yotibdi. Dasturxondagi nondan mehmon bir tishlam olgach, suhbat asosan dunyo voqealari, zamon g'avg'olari haqida bo'ldi.

Oppoq nurga o'ralganday taassurot uyg'otadigan eshon Abduraxmon jevachi uchun naqd avliyo edi. Haqiqatan ham eshon dunyo ishlarini o'z aqli va qalbi bilan his etar, gapirganda ham mulohaza bilan, yetti o'lchab bir kesib gapirardi. Nazarxo'ja eshon o'g'li olib kelgan choyni piyolalarga quyib uzatgach, qo'shni mahalla oqsoqoli Gadoyboyga ko'z ostidan bir qarab qo'ydi, balki "Ko'nglimdagilarni shu odam oldida bemalol aytam bo'larmikin?" degan xayol o'tgandir.

Inilarim, o'zbek xalqi turli xonlik, bekliliklarga bo'linib olib, o'z yog'iga o'zi qovurilib yotgani uchun dunyoda bo'layotgan ko'p o'zgarishlardan chetda qolmoqda. Xonu beklar xalqiga ma'rifat berishni o'ylamaydi! O'z nafsi yo'lida bir urug'ni ikkinchi urug'ga, bir qishloqni ikkinchi qishloqqa gij-gijlash, o'zaro urush chiqarish bilan mashg'ul. Shu sababga ko'ra dunyoga Al Xorazmiy, Ibn

Sino, Alisher Navoiy, Temur va Boburdek o'g'illarni bergan el jar labiga borib qoldi.

Darhaqiqat, bir tomondan o'rislar, ikkinchi tomondan inglizlar bizga qo'l cho'zmoqda, deya gapga qo'shildi Gadoyboy. Xon va beklar o'zimzniki, ular bizga tosh otmaydi, o'tsa ham bosh yormaydi.

La'nat o'sha kelgindilarga! Oq it, qora it baribir it. Maqsad bitta: o'zbekning boyligini talash. Gazetasida ham faqat yolg'on yozilgan. Xalqni atrofdagi voqealardan g'ofillikda ushlab turmoq niyatida faqat Germaniya va Fransiya haqida maqolalar bosadi gazetalar.

Abdurahmon jevachi suhbatdoshlari fikrini jim o'tirib eshitgach, axiyri tilga kirdi:

Har ikkingiz ham haqsiz. Lekin hech bir millat uchun erk va ozodlik o'z-o'zidan kelib qolmaydi. Quruq qoshiq og'iz yirtar. Gap bilan ish bitmaydi. Xalqni kurashga chog'lash kerak. Erta-inding Samarqand, keyin Toshkent xalqi qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olon bu "Yo hayot, yo o'lim!" degani, uchinchi bo'lishi mumkin emas.

Abdurahmon jevachining gaplaridan Nazarxo'ja eshonning ancha ko'ngli to'ldi. Ha, bu tog' burguti ozodlik yo'li, hurlik yo'li qo'zg'olon ekanligini to'g'ri tushuntirdi. Qo'zg'olon rejasi ham rosa pishib yetilganga o'xshaydi.

Abdurahmon jevachining shatalibliklar ichida obro'yi baland. Shatalibliklar asli mang'it urug'ining bir bo'lagi. Ular bu yerlardan chamasi ikki yuz yil oldin qo'nim topishgan, hozirda o'lkaning katta qismida yashashadi. Ular tog' orasida bir necha oy turib birorta ham tirik jonni uchratmagach, suvli tog' yonbag'riga chodir tikishgan. Shu-shu shatalibliklar Qo'hna bozor qishlog'ini makon tutgan. Hamma tog' qishloqlardagidek bu yerda ham yo'l bo'yida joylashgan soy to'lib oqmoqda. Bu yil Burguttog'i tepasida saratonda ham qor arimadi. Soyning ikki tomonidagi yong'oqzorlar, uzumzorlar, tutzorlar ichida qishloqning toshdan paxsali, sinchli guvalak uylari ko'zga tashlanib turadi.

Abdurahmon jevachining uyi qishloq markazidan uncha olis emas. U otni o'z holiga qo'yib berdi. Saman uy tomon yaqinlashganini sezdimi yoki egasini o'z xonadoniga tezroq eltgisi keldimi, yurishini tezlashtirdi.

Jevachi bu payt o'zi biladigan bir qo'shiqni xirgoyi qilib borardi. Bu qo'shiqni unga bir vaqtlar cho'ponlar o'rgatgan edi:

Qoralar, qop-qoralar,

Oshiq-moshiqni mo'ralar.

Ikki oshiq bir bo'lsa, ey,

Qo'ymaydi baxti qoralar.

Abdurahmonning o'zicha qo'shiq to'qigisi kelib ketdi. Lablari pichirlab, qofiya qidirdi, to'rt satr bir-biriga mos kelganday ham bo'ldi. Lekin u qo'shiqqa o'xshamadi:

Tezroq yurgin, to'pichoq,

Ko'zlari munchoq-munchoq.

Yov kelmoqda yurtimga,

Qilichlashay otamdek.

Ot soy bo'yi bilan qishloq etagiga yaqinlashdi.

Jevachi yana qo'shiq to'qimoqchi bo'ldi. Ammo Nazarxo'ja eshonning ruslarning Jizzaxga hujum qilishi haqidagi gaplarini eslab, kayfiyati buzildi. Axir Jizzaxda boshlanadigan to'polon bo'roni Forishga yetib kelishi aniq.

Ot hovli etagidagi buloq yoniga kelib suv icha boshBladi.

Abdurahmon, bolam, senmisan? deya ovoz berdi onasi.

Ro'parasida o'tirgan onasini ko'rmagani Abdurahmonni xijolatga soldi. Shu mahal uydin bolalari shoshib chiqishdi. Jevachi xurjundagi sovg'a-salomlarni, Samarqand noni va holvalarini ularga ulashdi. Onasining boshiga katta baxmal ro'mol yopdi.

Kampir qo'llarini duoga ochdi:

Oллоhim, bolamni o'z panohingda asra. Doim tinch bo'l, yo'ling ochiq bo'lsin!

Onasi o'g'lining hovli tomon bir qarab qo'yganini sezdi: kelin ichkaridan eriga ohista salom bergandi. Abdurahmon jevachi ichkari hovliga kirdi, xotiniga haqiqiy marjonni tutqazdi-da, tezda orqasiga qaytdi.

Bolalari sovg'alarini bir-birlariga ko'z-ko'z qilishib, "Meniki zo'r!" deya maqtangancha qo'shni bolalarga ham namoyish etish uchun chopib ketishdi.

Kampir o'g'li bilan ichkariga kirdi. Hovlidagi supa ustida solingan joyga ona-bola o'tirishdi. Kelin darhol yelib-yugurib dasturxon yozdi, choy damlab keldi. Ona o'g'lining bosib-bosib choy ichishiga qarab o'tirar ekan, nogahon ko'nglini g'ash qilib turgan bir xabarni aytib yubordi:

Qishloqda har xil gaplar. Birov tepadagi o'ris pristaviga hamma gapni yetkazib turar ekan. Sen ehtiyot bo'l, bolam.

Abdurahmon birdan choy ichishdan to'xtadi. "Kim bo'lishi mumkin?" degan fikr uning miyasini parmadek kovlay boshlagandi.

Qishloq odamlari birma-bir uning ko'z oldidan o'tdi.

Axir Nodirdan bo'lak kim ham ularning tilini biladi? Nasliga tortgan-da, bobolari ham xon huzurida ayg'oqchi bo'lgan ekan.

U o'rnidan turib otxonaga o'tdi. Otning sovuganini ko'rib, ustidagi abzalini tushirdi. Boshiga yemxalta oldi. Ot arpani kart-kart chaynay boshladi. Otxonada endi uchta ot qolgan edi, xolos. Minishga yaraydigani ikkita, bittasi hali bir yarim yoshda. Bular uchqurlikda qishloqning eng oldi otlaridan. Bunaqa otlar qishloqda hech kimda yo'q. O'tgan yili to'rt yoshli ko'k samanini bir xaridor qozoqqa ikki otga almashtirmadi.

Abdurahmon jevachi bezovtalanib qolgandi. OnasiBning gaplari sira yodidan ko'tarilmasdi.

U otxonadan chiqqach, tog' burguti turgan yerga qarab yurdi. Burgut ham egasining kelayotganini bilib to'r qafas ichidagi yog'och to'sin ustida "Keldingmi?" degandek ikki ko'zlarini unga tikib, mag'rur turardi. Jevachi tepadagi go'shtdan bir parcha olib, qafas tashqarisidan burgut tumshug'iga tutdi. Burgut egilgan tumshug'ida go'shtning bir qismini yulib oldi, bir oz og'zida olib turdi-da, liq etib yutib yubordi. Go'sht tomog'idan o'tguncha o'zini tinch tutdi. So'ng yana go'shtga yaqinlashdi. Abdurahmon go'sht bo'lagini tepadan pastga tashladi. Burgut go'shtni chaqqonlik bilan ilib oldi va panjalari orasiga olib, parchalay boshladi.

Ko'plar ketdi, uylar buzildi, qishloqlar huvillab qoldi. Qishloqlar boyo'g'lilar makonlariga aylandi. Tog'lardagi bo'ri, yovvoyi cho'chqalar qish kunlari qishloq oraladi, bu yaxshilik alomati emasdi.

1916 yil arafasi. Jizzax va Forishda yashirin qo'zg'olonga tayyorgarlik boshlab yuborilgandi. Uning tashkilotchilarini bir-ikki

kishidan bo'lak hech kim bilmasdi. Jizzax shahri buzilgan ari uyasiga o'xshaydi. Kunduzlari jim-jit. Kechasi esa polkovnik Rukin yashirincha mardikorlar ro'yxatini tuzardi.

Polkovnik Rukin 4 iyulki kuni shahar aholisini eski shahardagi katta machitga to'pladi. Yig'ilishga katta boylar va mingboshi, ellikboshilar taklif qilindi.

Yig'ilishda shaharning ko'zga ko'ringan kishilari Mirzayor Xudoyorxonov, Mahkamboy Ro'ziqulov, MirzaBhamBdam Zokirjonov, mahalliy boylardan Rahmonqul va MarBdonqul savlat to'kib turishardi.

Oq podshoning farmoniga qarshi bo'lganlarni qo'rqitib qo'yish uchun Rukin so'z boshladi:

Eshitishimga qaraganda oralaringda g'alayon ko'tarmoqchi bo'lganlar bor ekan. O'shalar bilib qo'yishsin: hukumatga qarshilik ko'rsatganlar yer bilan yakson etiladi, mol-mulki esa talon-taroj qilinadi.

Bu so'zlarni tilmoch Mirzahamdani Zokirjonov o'zbekchaga aylantirib xalqqa yetkazib turdi. Odamlar bir-biriga imo qilib, asta-sekin tarqala boshladi.

Ajab zamonlar bo'ladi shekilli. Bugun-ku indaBmadi, ammo ertaga yigitlar vagonga chiqqanida xalq bu adolatsizlikka qanday chidar ekan?! dedi odamlar orasida ketayotganlardan biri.

Muhammadrahim bu gaplarni eshitsu ham, o'zini eshitmaganga soldi. Yuzlab odamlar yuzida g'azab uchqunlari charsillab turardi. Ularga bitta bahona yetishmas edi.

Muhammadrahim shaharning chetidagi Nazarxo'ja eshonning uyiga Ziyoqori bilan birgalikda borishga qaror qildi. U Nazarxo'ja eshon bilan maslahatlashib, odamlarni qanday qilib bo'lsa-da mardikorlikdan olib qolish niyatida edi. Negaki, xalq, ayniqsa kambag'al dehqonlar chor Rossiyasi va mahalliy ma'murlarning zulmidan to'ygan edi. Xalq bunday yashashdan bezor bo'lgandi. Kechki payt Nazarxo'ja eshonning tashqi hovlisi eshigi taqilladi. Eshon asta tomoq qirib olgach, so'radi:

Kim u, nima xizmat?

Tashqaridan Ziyoqorining tanish ovozi eshitildi:

Eshon bobo, biz Muhammadrahim bilan sizning ikki og'iz suhbatingizni olgani keldik.

Eshik ochildi. Ichkaridan oppoq ishton-ko'ylak kiygan ellik-ellik besh yoshlardagi, bo'yi o'rtacha, oppoq yuzli, moshguruch soqqoli, ko'zlaridan nur yog'ilib turgan kishi ko'rinish berdi.

Assalomu alaykum, deya keluvchilar mezbun bilan qo'l berib ko'rishishdi.

Keling, keling, hoji, deya Ziyoqorini oldinga o'tkazdi uy egasi.

Uchovlon oldinma-keyin mehmonxonaga kirishdi. Eshik oldiga qo'lini uzun yengi bilan o'ragan ayol kishi dasturxon, non, pista, novvot va choy qo'yib ketdi. Muhammadrahim uy egasidan oldin chaqqonlik qilib, dasturxonni yozib choyni qaytardi.

Gapni Ziyoqori boshladi:

Eshon aka bugun Rukin deganlarining gapini eshitdik. Mardikorlar ro'yxati tuzilgan, ularning tegirmoniga Akramxonto'ra, Abdusamat Maxsum suv quymoqda. OdamBlarning qahr-g'azabi daryodek toshdi, buning ustiga qurBg'oqchilik odamlarning tinka-madorini quritgan.

Nazarxo'ja eshon bo'layotgan voqealarni mudom aql tarozisidan o'tkazishga urinardi. Uning otasi AbduBsalomxo'ja dunyo ko'rgan, chuqur ilmga ega bo'lgan ziyoli inson edi. Buxoro madrasalarida uzoq ta'lim olgan Abdusalomxo'ja o'g'li Nazarxo'janing bilim olishiga juda katta e'tibor qaratgan.

Keyingi yillarda xalq qo'zg'olonlari Xo'jand, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan, Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida ro'y berdi.

Samarqandda odamlar volost boshqaruvchilarini toshBbo'ron qildilar.

Nazarxo'ja eshon qo'zg'olonga boshqalarni ham, ayniqsa Bog'don, Zomin, Yangiqo'rg'on hamda Sangzorda yashovchi kambag'al dehqonlarni birlashtirib, ularni bosqinchilar va adolatsiz mahalliy ma'murlarga qarshi kurashga otlantirish kerakligini maslahat berdi.

Ziyoqori uning gapini ma'qulladi:

Qo'zg'olon bir-ikki kishi bilan bo'ladigan narsa emas, qo'zg'olon to'y ham emas, bu qonli kurash. "Yo hayot, yo mamot!" deya kurashga kiriladi. Kurash hech qachon qurbonsiz bo'lmaydi.

Ziyoqori hoji bu gapni yuragi achishib aytdi. U Makkaga ikki marta haj qilgan, boshqa el-yurtlarni ham ko'rganlardan biri. Ancha savodli bo'lib, bir-ikki bayozi bor. U ozodlik va hurlik uchun kurashga tayyorlardan. Ayni paytda mustamlakachilik zanjirining osongina yechilmasligini ham juda yaxshi tushunardi. Bu harakat ho'kizni ham o'ldirishi, omochni ham sindirishi mumkinligini tushunardi.

Ziyoqorining taklifi bilan o'lkadagi qasoskorlarni birlashtirish rejasi tuzildi. Ularga Nazarxo'ja eshon yetakchilik qiladigan bo'ldi. Ertasiga Nazarxo'ja Toshkent shahriga, Ziyoqori Samarqand shahriga, Muhammadrahim Bog'donga borishga qaror qildilar.

Nazarxo'ja eshon gurung yakunida shunday dedi:

Xalq adolatsizlikka aslo chiday olmaydi. Necha yillardan buyon o'zimizning amaldorlar adolatsizlik qilishmoqda. Soliqning yangi-yangi turi har kuni o'ylab topilmoqda. Xalqimizda yakka otning changi chiqsa ham dong'i chiqmas, degan maqol bor.

Jizzaxda qo'zg'olon ko'tarilgan bilan uni Bog'don, Zomin, Yangiqo'rg'on, Sangzor ahli qo'llab-quvvatlamasa g'alabaga erishib bo'lmaydi. Biz atrofimizga butun xalqni to'plashimiz zarur. Samarqand, Toshkent, Bog'don, Zomin va boshqa joylar bilan aloqa bog'lash, ishonchli kishilarni yuborib, zudlik bilan kelishish kerak, eng avvalo qurol masalasini hal qilish zarur. Ayniqsa, Bog'donda qurol topish ancha mushkul. Odamlar Samarqand, Qarshi va boshqa tomonlarga ko'chib ketdi. Bitta-yarim qurolni ham o'zlari bilan olib ketishdi.

Haq gapni gapirdingiz, dedi Muhammadrahim eshonning so'zini ma'qullab. Men Bog'donga borib Abdurahmon jevachi bilan aloqa bog'lashni o'z zimmamga olaman. U kishi Forishda katta obro'-e'tiborga ega. Atrofiga boshqa beklklarni ham to'play oladi. Forish xalqi mag'rur tog'liklar. Ular bir ishni boshlasa bo'ldi, uni oxiriga yetkazadi.

Shunday, dedi Ziyoqori. Mening Bog'donda ko'p tanishlarim bor. Ularning ham sabr-kosasi lim-lim to'lgan. Qo'zg'olonga qo'shilishlari tayin. Nazarxo'ja aka aytganiday, bitta muammo qurol-aslaha masalasini hal qilish lozim.

Biz do'stim Ibrohimboy bilan Samarqandga borib, yor-do'stlari bilan uchrashamiz hamda qo'zg'olon harakat dasturini pishitib qaytamiz, deya gapida davom etdi Ziyoqori. Samarqandliklar ham Rossiya podshosining farmonidan naroz. Samarqand atrofidagi qishloqlarni, ayniqsa urgutliklarni bu qo'zg'olonga jalb eta olsak, nur ustiga nur bo'ladi.

Men esa, dedi do'stlarining gapidan xursand bo'lgan Nazarxo'ja eshon hayajonlanib, Toshkent shahriga borib kelaman.

Toshkentliklar bizni qo'llab-quvvatlasa juda zo'r bo'lardi. Kurashish uchun miltiq masalasini ham toshkentlik do'stlar bilan

bamaslaxat hal qilarmiz. Jizzaxdagi mahallalarga yoshlar orqali murojaatnoma tarqatish kerak.

Bu fikr Ziyoqoriga juda yoqdi. Negaki, xat og'zaki aytilgandan ko'ra inson ruhiga kuchliroq ta'sir etadi. Murojaatnoma matnini Ziyoqori yozishga kirishdi. Murojaatnoma o'zlarining ishonchli kishilari orqali tarqatiladigan bo'ldi.

Maslahat bitgach, mehmonlar Nazarxo'ja eshon xonadonidan bitta-bitta chiqib ketishdi. Negaki, Rukin shaharning har bir ko'chasiga ayg'oqchilar quygan edi. U fon Kaufmanning "Sartlarning har bir qadamini poylamoq, ularni bir-biriga qo'shmaslik kerak. Uch kishi biriksa, albatta podshoga qarshi gap bo'lishi tayin!" degan o'gitiga qat'iy amal qilardi.

* * *

Erta bahor. Atrof ko'm-ko'k. Osmonda uchib yurgan qushlarning mayin sayroqi ovozi eshitiladi.

Shunday kunlarning birida Abdurahmon jevachi Mixin qishlog'idagi bog'dan xabar olish uchun otlandi. Eshik oldida to'xtab to'ng'ich xotini Ro'zi, o'g'illari Islom bilan Sorabekka atrofda xas-xashaklarni to'plashni buyurdi. Rustam va Norbek esa otga mingashib, ota bilan Mixinga jo'nashdi.

Hovli chinniday toza. Hovlidan o'tgan ariqdan zilol suv mavjlanib oqmoqda. Maqsad bilan Ruksat so'rida qo'g'irchoqqa ko'ylak tikmoqda. Ichki hovlida Abdurahmonning kichik xotini Qormiz Norbuvini emizish bilan ovora. Erining oti soydan o'tganini ko'rgan Qormiz asta tashqi hovliga o'tdi.

Opa, men xamir qorsam, siz bolalar bilan bir dalani aylanib kelmaysizmi, bog' etagi shunday chiroyli bo'libdiki, atrof ko'm-ko'k, toklarning bargi shapaloq-shapaloq. Men issiq non olib o'taman. Bolalar bir yayrashardi.

Ro'zining ham ko'ngli allanechuk bo'lib turgan ekanmi, tezda "Kichik xonim"ning o'g'illari Doston, Qorabeklarni ergashtirib, o'zi esa Ruksatni ko'tarib bog' etagiga tushib ketdi. Katta bog' etagidagi yong'oq ostiga joy qilishdi. Kigiz solib, ustidan ko'rpacha tashlashdi. Atrofdagi g'ir-g'ir mayin shabada esadi. Tan rohat oladi. Qorabek bir etak yalpiz, ismaloq terib keldi. Bolalar ko'k o'tlarni tuzga botirib yeyishardi. Sariq chittakning mayin ovozi atrofga taraldi.

Oradan ko'p o'tmay Qormiz qaymoq, jizzali patir ko'tarib, qolgan bolalar bilan yetib keldi. O'g'il bolalar o'tirib varrak yasab, osmonga uchirishdi. Shamol varrakni balandga ko'targan sayin Doston shodon tarzda "Yashasin, yashasin o'zimming varragim!" deb baqirardi.

Varrakbozlik peshingacha davom etdi. Bahor havosi qoraytirib yuborgan bolalar kigiz ustida yotib, toza havoda uyquga ketishdi. Qishloq etagidan qo'shiq kuylayotgan yigit kishining mayin ovozi keldi:

Oq ilon, oppoq ilon,

Oydinda yotganing qani.

Biz yomondan ayrilib,

Yaxshini topganing qani.

Bu Forishda juda ommalashib ketgan qo'shiqlardan biri edi.

Ro'zi Qormizni bolalarga qorovul qilib, o'zi kechki ovqat tayyorlash uchun tashqi hovlidan oshxona tomon yurdi. Bu oilada ikki xotin bo'lsa-da, ular ahil-inoq yashashar, bir qozon osilar, bir dasturxonada o'tirib ovqat yeyilardi.

Kechki ovqat tayyorlashga hali ancha bo'lsa ham Ro'zi kulchatoy tayyorlash uchun qozondagi suvga qotgan ot, mol, qo'y go'shtidan mo'l soldi. Negaki, kechki payt bu xonadonga erining urug'-aymoqlari, inilari hamda hamqishloqlar kelishardi.

Qishloqda Abdurahmon jevachi bilan maslahatsiz biron jiddiy ish qilinmasdi.

Kech tushishiga yaqinlashganda jevachi Mixindan o'g'illari bilan yetib keldi. U kun bo'yi Qoratoshdan keladigan ariqni tozalab, Kattabog'ning toklarini xomtok qilgandi. Har bir tokda o'n-o'n besh bosh uzum gul ko'rsatgan, bu hosilning mo'lligidan darak berardi. Abdurahmon jevachi asli mang'it urug'idan bo'lib, urug' uch bo'lakka: oq mang'it, sariq mang'it, qora mang'itga ajralardi.

U qora mang'itga mansub edi. Mang'itlar bu o'lkalarga XIV asrlarda Turkiston tomonlardan kelgan bo'lib, bir qismi Qarshi, bir qismi Mo'ynoy tomonlarda yashardi. Jevachi laqabi esa xonning ot yetakchisi, yo'lbo'shchisi bo'lganligidan kelib chiqqan.

Dasturxon atrofida hamma jamul-jam bo'ldi. Amakilari Mavlon va Haydar ham kirib kelishdi. Erkaklar suhbat zamon tashvishlari haqida bo'ldi. Ko'k choyni maydalab ichayotgan Mavlon amakisining fikrini bilish uchun gap boshladi:

O'rislar ham asta-sekin atrofda ko'payib bormoqda. Germon bilan o'risning urushi haqida turli mish-mishlar eshitayapmiz.

Ha, zamon o'zgardi. Zug'umli, adolatsiz davlatning uzoq yashashi qiyin. O'rislar atrofda ko'z tikib qoldi. Ular Murintovni egallash uchun yigirma yil oldin Buxoroga yashirincha kelishgandi. Bizda oltin mo'l, yerimiz boy, elimiz sodda. Bunday elni bo'ysundirish oson. Zamon o'zgaraveradi, bir kichik xato zamonnin telba-teskari qilib tashlaydi. Temurdek podsho zamoni o'zgartirganda, Nikolay podsho zamoni o'zgartirgandimi! Xalqda hamjihatlik bo'lishi kerak, hamjihat bo'lmagan xalqni har kim talaydi.

Uy ichidagi ayol va bolalar erkaklarga xalaqit bermaslik uchun ichki hovliga o'tib ketishdi. Uch erkak bolishga yonboshlaganicha ancha suhbat qurishdi.

Haydar chorvador bo'lgani uchun bu yilgi chorvaning ahvolidan so'z ochdi:

O't-o'lan mo'l, erta-indin Qoratoshdan o'roq boshBlasakmi, siz nima deysiz, aka! Hashar qilsakmi? Yo o'zimiz o'rib yig'ib ola qolamizmi? Qishlikni hozir tayyorlamasak, erta yozda xashak o'rish ancha qiyin.

Jevachiga amakisining gaplari yoqib tushdi, negaki bugun kun bo'yi Qoratoshdan bo'lib, o't-o'lanning bo'yi tizzasidan oshib ketganini ko'rgan edi.

Xashak mo'l, men bugun bog'dan xabar oldim. Uch-to'rt kishi bilan yig'ib olish ancha qiyin. Hashar qilish kerak. Erta-indin qishloqda biron uy shuvog'i, biron qurilish qiladi, biron daraxt kesadi. Sizlar ham qarab turmaysizlar. Ha degan tuyaga madad. Mayli, bu ishlar bo'lar, men Jizzax, Toshkent, Samarqanddagi do'st-birodarlar holidan xavotirdaman. Temir yo'l bor. Soldatlar ularni tez bosib oladi. Zamon o'zgarayapti. Nima bo'lishini hech kim bilmaydi. Jizzaxdagi Eshon akaning odamlaridan ham haligacha hech xabar bo'lmadi...

Suhbat yarim kechagacha davom etdi. Nihoyat Mavlon bilan Haydar fотиha qilib, o'rinlaridan qo'zg'alishdi. Jevachi ham ular bilan tashqariga chiqdi.

Osmonda yulduzlar porlab turardi. Hovli etagidagi yong'oqda qari tog' burguti tumshug'ini pati orasiga olganicha uyquga ketgandi. Abdurahmon jevachi kerishib qo'ydi. Hademay tong otadi. Ertaga ne bo'lishi faqat Oллоhga ayon.

Jevachi hovlida ancha turib qoldi. Ustiga kamzulini kiymaganidan eti junjikdi. Qoratoshdan esgan mayin salqin shabada tetiklik baxshida etdimi, u kichik xotini yotgan xonaga yo'l oldi.

* * *

Abdurahmon jevachi oradan bir haftani o'tkazib yana Jizzaxga keldi. Maqsadi qo'zg'olon oldidan qilinadigan ishlarni yana bir maslahatlashish, rejalarni puxtalab olishdan iborat edi. O'tgan gal kelganida Nazarxo'ja eshon bilan bu sohada kelishib olgan edi. Jevachi Pistali tog' etagi bo'ylab Jizzaxga kelar ekan, yo'l-yo'lakay atrofdagi tog'-toshlarga, hattoki dov-daraxtlarga ham qarab keldi. Negaki, keyingi kunlarda Barilloning ayg'oqchilari uning atrofida itdek izg'ib qolishdi.

Eshon jevachini hamishagiday ochiq chehra bilan eshik oldida kutib olar ekan mamnuniyat bilan dedi:

Bo'rini yo'qlasak bo'lar ekan, hozir sizni eslab turgandim. Umringiz uzun bo'ladi, qani, inim, xush ko'rdik, ichkariga marhamat! Jevachi otni og'ilxonadagi yakka mixga bog'ladi-da, eshon bilan ko'rishib, doimiy kelib yurgan mehmonxonga tomon qadam tashladi. Ular joylashib o'tirib olishgach, eshon fotiha qildi, hol-ahvol so'rashdilar. Xonaga yoshgina yigitcha dasturxon keltirdi. Eshon gapni uzoqdan boshladi:

O'rislar urushda yengildi, lekin qirol Angliyasi chor Rossiyasi bilan bugungi kunda munosabatlarini yanada yaxshilamoqchi. Har ikkisi Turkistonga ko'z tikkan, lekin ma'lumligizki, podsholarning quchoqlashib ko'ribshishi ular o'rtasidagi ro'y bergan birorta urushga barham bergan emas. Yuzi yuziga tekkani bilan, qalbi-qalbiga tegmaydi. Hattoki ikki qo'shni arazlashsa, ancha vaqt oraga sovuqchilik tushadi. Mamlakat podsholarining ham tilida boshqa, dilida boshqa

Jevachi dasturxondagi piyolaga tikilganicha o'z mulohazasini bildirdi:

Angliya Rossiya bilan juda yaxshi munosabatda bo'lgandek tuyulsa-da, u Rossiyaning qudratli bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka urinadi. Bu Angliyaning odat tusiga kirgan siyosati.

Albatta. Bir vaqtlar Napoleon bosqini paybtida Angliyaning Eron orqali Rossiyaga qarshi urush uyushtirganini bilsangiz kerak. Jevachi bu gaplarni eshitar ekan, ro'parasidagi eshonning nafaqat diniy sohada, dunyo siyosati sohasida ham yetuk ekanligini bildi. Zero turli kurashlarda Angliya chetdan turib o'sha mamlakatlarga qurol-yarog' yetkazib berar, mahalliy aholini qurollantirar edi. O'sha kunlari ham Afg'oniston orqali Turkistonga qurol yetkazib bera boshlangan edi.

Suhbat uzoq davom etdi. Kurash rejasi puxtalandi. Kech qorong'i tushganda Abdurahmon jevachi Bog'donga qaytdi. Yo'l-yo'lakay tog'-toshlar ustida turgan burgutlarni tomosha qilib ketdi. Ular uzun qanotlarini yoyib, mag'rur uchishardi.

Jevachining ko'z oldida Bog'donning yarim taqir toshloq dashti yastanib yotardi. Shu dasht bo'ylab ikkita so'qmoq yo'l yonma-yon cho'zilib ketgan. Oldinda, juda uzoqda ko'kish tutun zo'r-bazo'r ko'zga chalinardi.

Qosh qoraya boshladi. Hamma yoqni changitib daladan poda qaytdi. Jevachi oq qashqasining yuganini bo'sh qo'yib asta tebranib borardi. Pastqamlikda esa uni bir juft ko'z diqqat bilan kuzatib turardi...

Abdurahmon jevachi endi ozodlik yo'lidagi kurashga bel bog'lagandi. Oradan bir hafta o'tib Abdurahmon jevachi tong saharda yana Jizzax sari yo'l oldi. U Jizzaxning Xovost, Toshkent, Saroy, Mo'lkal, Ravot, Yaxtal, O'ratepa, Oqqo'rg'on mahallalarida yashovchi Suvon g'ijjakchi, Nasim usta, Bo'taboy chilangir kabi oshnolari bilan tez-tez uchrashib turardi. Har bir uchrashuv tashvishlari odamlar hayoti haqida bo'lardi. Biroq ular bilan qancha gurgung qurmasin, barisi Nazarxo'ja eshonning suhbatlari o'rnini bosa olmasdi. Jevachi har kelganda Nazarxo'ja bilan uzoq suhbatlashardi.

Odamlarni mardikorlikka olish bu bir bahona xolos. O'rislar va olmonlar urush boshlagan ekan, bu ajdaho o'z og'zini shunchalik katta ochdiki, uni na odamlar, na pul bilan to'ldirib bo'ladi. Bu ajdaho yurtlarni, ellarni, er-xotinlarni ham yutib to'yamaydi, dedi Nazarxo'ja eshon.

Mardikorlikka boylar, amaldorlar o'z bolalarini jo'natmaydi, ular Rus podshosi homiyligida avval kambag'al bechoralarning farzandlarini yuborishadi. Shuning uchun bolalarni tog'lar orasiga jo'natib yuborish kerak. Xalq dengizdek toshib turibdi. U albatta sizdek odamlar oldiga maslahatga keladi. Odamlarni kurashga tayyorlash zarur. Bu kurash endi yengil kurash bo'lmaydi. Mehmon bu gaplarni aytar ekan, uy egasi nima derkin degandek yer ostidan Nazarxo'jaga razm soldi.

Xalq oq podshoning soliqlaridan to'ygan edi. Turkistondan keyingi ikki yilda 70 ming ot, 12 ming tuya, 13 ming o'tov, 30 ming dona kigiz, 300 ming tonna go'sht, 3 million pud yog' talab olindi, inim. Bu xalqning nasibasi emasmi? Ko'pchilikning burnidan tortsangiz, oyog'ingiz ostiga yiqiladi. O'ris podshosi buni biladi, bilsa ham ataylab qiladi, "Ezib tashla-yu, hukm sur!"

O'zimiznikilar esa "O'zingnikini sot kun ko'r!" shioriga o'tib olgan. Kecha dasturxonda birga non yegan bugun sizni sotadi... Kechki salqinda jevachi Bog'donga qaytdi. U Qoratoshgacha kelganida tong otishiga yaqinlashgan edi. Otini tushovlab qo'yib tahorat qildi. Ustidagi choponini yechib bomdod nomozini o'qishga kirishdi. Jevachi Ollohdan yurt tinchligi, xalqning omonligi, qilgan gunohlarini avf etishni so'radi.

Jevachining ortidan bir odam pisib kelardi. Bu Barilloning ayg'oqchisi edi. Ayg'oqchi jevachining Jizzaxda Nazarxo'ja eshon bilan uchrashganini aniqlab qaytayotgandi. U Jizzaxda Mirzayor mingboshiga ko'rganlarini oqizmay-tomizmay aytib bergach, jevachi orqasidan tulkidek pisib kelayotgan edi.

Qoratoshgacha kelganida jevachi soy bo'yida ancha to'xtab qoldi, otga dam berib, o'zi ham bir oz tamaddi qilib olishga chog'landi. Shoshib nima ham qiladi. Biror voqea bo'lsa, uning kelishini kutmasdan boshlash uchun Ko'hnabozorda ham do'stlari ko'p.

Yoz issig'ida shuvoq ostiga in qo'ygan chumchuqning to'rt bolasi og'izlarini katta ochib, qizil tillarini ko'rsatganicha suvsizlikdan qiynalishardi. Jevachi do'ppisida suv olib kelib temirqanot qushlar og'ziga ikki-uch tomchidan tomizdi. Qushlar jim bo'lib qoldi.

Soy to'lib oqayotgan muzdek suv, atrof ko'm-ko'k daraxtor, olmalar shoxi mevasini ko'tarolmay yerga bukilgan, soy atrofidagi yalpiz dimoqni qitiqlaydi. Yaqin joydan bedananing "Vavoq-vavoq" degan ovozi eshitiladi. Shamol yoqimli hid bilan birga achchiq shuvoq isini olib keladi. Har turli hidlar qo'shilib odamning tanasini yayratadi. Bolaligi o'tgan qishlog'ida otasi bilan har yili qancha-qancha daraxtlar o'tqazar, ularni ko'kartinib uchun erta bahorda toklarning ildizi atrofini ochar, soqol tomirini qirqib, o'q tomirini qoldirar, chuqurga esa buzilgan uy guvalasini, qo'y-echki nurisini solar, sug'orardi. Kuzda esa tilni yoradigan qora kishmishi, qip-qizil toyfi, oppoq danaksiz barmoqcha uzumlar quritib mayiz qilinardi. Ayniqsa, Forish uzum shinnisi dunyoning hech yerida yo'q.

Abdurahmon jevachi tunni Yoyilma cho'lida o'tkazdi. U cho'lda osmonga tikilganicha yotarkan, yoshligida toqqa chiqib, burgut bolalarini ovlagan kunlarini esladi. Abdurahmon qish kelishi bilan tog'-toshlarga chiqib ketardi. U Burgutqoyadagi g'orlarda tunab, qishi bilan bo'rilarini ovlab xumordan chiqardi. Abdurahmon g'irromlikni yomon ko'rar, hattoki bo'ri bilan kurashda ham g'irromlikdan qochib, multiq bilan otmas, qashqirlar bilan faqat pichoq yordamida olishardi. Bo'ri hamisha qulay payt poylaydi. Odamning xayoli qochishini ko'zlaydi. Dunyoda uning hamisha yonib turadigan ko'zidan o'tkir ko'z yo'q. Bo'rilar ba'zan ikkita bo'lib hujumga o'tadi, pichoqdek o'tkir tishlarini ishga soladi. Abdurahmonning bir safar bo'ri panjasiga tushishiga sal qolgandi. U o'shanda Mixindagi dalasi chetidagi hujrada bir o'zi qoldi. Tahorat olish uchun tashqariga chiqqanida molxona tomondan bahaybat bo'ri unga tashlandi. Kurash ancha davom etdi. Nihoyat Abdurahmon bo'rining jag'ini ayirib yubordi. Bo'rining o'tkir tishlari uning qo'llarini qonatiq yubordi. Umuman Abdurahmonning qo'llari va tanasining boshqa yerlarida bo'ri tishlarining izi son-sanoqsiz edi.

* * *

Abdurahmon jevachi quyosh ko'tarilishi bilan yo'lga chiqdi. Jevachi laqabi uning avlodlari mang'itlar davrida xonning ishonchli askarlaridan bo'lgani, sovut kiyib, har xil temir yarog'lar bilan qurollangani uchun berilgan. Jevaxonada harbiy yurish vaqtida ishlatiladigan xonning sovut va temir qurollari saqlangan hamda urush paytlari xon bilan birga olib yurilgan. Abdurahmon jevachining otasi ma'lum muddat Buxoro xonligida To'qsoba, ya'ni xon maslahatchisi lavozimida xizmat qilgan. Uning o'zi ham xonlik davrida Bog'don bekligida katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan. Jevachi avlodlari o'rta bo'y, qoramag'iz, baquvvat, ko'zi o'tkir, panjalari yirik, otda qomatini tik tutib yuradigan bo'lgan.

Ayni saraton pallasi. Barcha ilonu chayonlar in-iniga kirib ketgan. Jizzaxdan chiqqan Turkiston general gubernatori yugurdagi kapitan AfanasKjev o'z ortidan to'rt rotadan iborat piyoda askarlar, yuz kishilik otliq kazaklar va ikkita to'pchilar vzvodini ergashtirib Forish tomon borardi. Uning qo'lida qo'zg'olonchilarni yo'q qilish haqida buyruq. Kecha isyonchilar Jizzaxga o't qo'ydi. Ho'lu quruq baravar yondi. Qon daryo misoli oqdi. Xalq qo'zg'olonga chiqmoqchi. Maqsad bitta: "Yo hayot, yo o'lim!" Toshkentda boshlangan qo'zg'olon butun o'lkani qamrab oldi. Turkiston general-gubernatori A. N. Kuropatkin Peterburgga, oq podshoga telegramma berdi. Unda shunday so'zlar yozilgandi: "O'lkada notinchlik. Yordamga odam, qurol yuboring. Yovvoyi xalqni qurolsiz buysundirib bo'lmaydi".

Kapitan AfanasKjev cho'l bo'ylab ketar ekan, uzoqdagi Nurota tog'lariga qo'rqinch bilan boqardi. Tog' ustida burgutlar galasi uchib yurardi. Bu yerlarning odamlari emas, hatto toshu burgutlari ham AfanasKjevga vahima solardi. Bu tog'lar bag'rida qanchadan-qancha unga qarshi kurashchilar yashirinib yotgan ekan...

Ana, osmonda tog' burguti charx urib uchmoqda. U cho'lda o'lja qidiradi. Uning ham dardi dushmanlarni yo'q qilish. Qush dardi nima ovqat. Hayot falsafasi qiziq: kim kimnidir yo'q qilish, o'ziga bo'ysundirish, yanchish ishtiyoqi bilan yashaydi. Tog' burguti ongsiz bo'lsa-da, buni biladi.

Rus askarlari bunday issiqni ko'rmaganidan suvsizlikdan qiynalib, tobora sur'atni pasaytirardilar. Ayrim askarlarning flyagasidagi suv allaqachon tamom bo'lgan.

Ikki kun bo'ldiki, ayg'oqchidan darak yo'q. AfanasKjevning ko'zi uning yo'lida. Forishga shunday kirib borib bo'lmaydi. Tog'liklar hamma joyda ham qaysar va qo'rqmas bo'lishadi. AfanasKjev buni bolaligi o'tgan Kavkazda ko'p ko'rgan. Forishliklar ham kavkazlik tog'liklarga o'xshaydi. O'lsa o'ladiki, hech bo'yin egmaydi. "Forishdagi pristav Barillo Ko'hnaobodda besh yildan buyon qanday yashayotgan ekan?" degan o'y o'tdi uning ko'nglidan.

Abdurahmon jevachi bilan Nazarxo'ja eshon tuzoq qo'yishgan bo'lsa, buni ayg'oqchi orqali bilish mumkin. Ayg'oqchi esa qumga tushgan suvdek yo'q bo'lib ketdi. Na tirikligidan, na o'lganidan darak bor. AfanasKjev xayol surganicha ot ustida asta tebranib borar ekan, askarlarning safi yurishdan to'xtadi. Darhaqiqat, bu jaziramada uzoq yurib bo'lmasdi. Bu yerlarning havosiga o'rganmagan rus askarlari o'zlarini o't-o'lanlar va toshlar soyasiga olishdi. Otlarni bundan ikki yuz yil oldin qurilgan Abdullaxon suv ombori tubida qolgan ko'lmakdan sug'orib olish uchun bir oz nafas rostlashdi. AfanasKjevga esa otlar sudrab ketayotgan ko'chma oshxonadan tushlik keltirildi. AfanasKjev tushlikni qoyatoshga suyangancha asta yeya boshladi.

Shu payt uzoqdan ot qorasi ko'rindi. U ayg'oqchi edi. Ayg'oqchi issiqdan qiynalganidan zo'rg'a nafas olardi. U otdan tusha olmadi. Ikki soldat uni qoyatosh soyasiga oldi, og'ziga flyagadan ikki qultum suv tomizishdi. Suv ayg'oqchining tomog'idan zo'rg'a o'tdi. Ayg'oqchi hansirar, ovozi zo'rg'a chiqar, yorilib ketgan lablaridan qon sizib turardi.

Odamlar qurollanmoqda. Abdurahmon jevachi o'zi yashagan Ko'hnaobod qishlog'i atrofidagi qishloqlarga odam yuborib qurollantirmoqda. Ular ichidan bittasini topdim. Oq bayroq bilan bizni kutib oladi.

Ayg'oqchi bir amallab shu gaplarni aytgan zahoti hushidan ketdi.

Osmonda bir gala tog' burgutlari charx urardi. Kapitan AfanasKjev ularni ko'rib dahshatga tushdi. Zero u tog' burgutlari odamlarga ham hamla qiladi deb eshitgandi. Bu yerlarning burgutlari shunday qo'rqinchli bo'lsa, odamlari qanday ekan?

AfanasKjev ikki askarga ayg'oqchining og'ziga oz-ozdan sharbatli suv tomizib turishni tayinladi-da, o'zi Jizzaxga, o'lka qo'mondoni Ivanovga odam yubordi. Bu xalqni bir-ikki pulemyot va yuzlab miltiqlar bilan bo'ysundirib bo'lmasligiga kapitanning ko'zi yetgandi. Qo'shimcha kuch kelgancha esa kechasi asta Qoratoshdan o'tib Osmonsoy, Ilonchi qishloqlaridagi xonadonlarga o't qo'yishga, barcha qimmatbaho narsalarni bir yerga to'plashga buyruq berdi.

Agar bu ish tezlikda qilinmasa, odamlar tog'Blarga chiqib ketadi, dedi AfanasKjev. Hech kim ayab o'tirilmasin, xotin va bola-chaqalar ham yo'q qilinsin!

Buyruq juda ham dahshatli edi. Rus askarlarining ko'pchiligi ham ham bu kabi shafqatsizlikka birinchi bor duch kelishlari edi. Ilonchi, Osmonsoy aholisi yovga qarshi qo'lga ketmon, panshaxa ko'tarib chiqdi. Merganlar rus soldatlari ustiga miltiqlardan o'q yomg'irini yog'dirdi. Usta merganlar esa kamon bilan olovli nayza otishardi. Tosh qoyalar ortidan otilgan o'qlar va olovli nayzalar yov askarlariga qiron keltirdi. Ular orqaga chekinishga majbur bo'ldilar. Rus bosqinchilarining ko'pi kuyib safdan chiqdi. Hamma yoqni kuygan odamning sassiq go'shti hidi qopladi. Tog'liklar yovdan shunday qasos olishdi.

* * *

Bu voqea bundan besh yilcha oldin, Barillo kelmasidan burun sodir bo'lgandi.

Abdurahmon jevachining hovlisi. Hovli to'rt tomondan baland devor bilan o'ralgan. Bog'da yong'oq, olma daraxtlari shoxlariga mevasini ko'tara olmay qolganidan tirgak qo'yilgan. Hovli chetidan kichik ariq o'tgan, undan buloq suvi oqadi. Molxonada o'n bosh sigir, o'ttiz-qirq qo'y beda kavshamoqda. Qo'yxonada ikki dumbasini ko'tarolmaydigan qo'chqor yem yemoqda. Qo'chqorlar ustiga tuxum qo'ysa bemalol turadi. Ayollar ichki hovliga dam-badam tovoqlarda olma, nok, anor uzatmoqda. Bugun bu xonadonga Abdurahmon jevachining ko'p yillik qadrtoni jizzaxlik Nazarxo'ja eshon mehmon bo'lib kelgan. Eshon bu yerga kelishidan oldin Toshkentga borib kelgan edi. Mehmondorchilik bu quruq ziyofat emas, eshon hamfikir jevachi orqali xalqning kayfiyatini bilish niyatida. Mehmon va mezbonning tashvishli ekanligi ko'zga tashlanadi. Dasturxonadan tovoqlar olingach, taomga fотиha o'qigan eshon asta gap boshladi.

Jevachi, mana o'rislar hukmronligi bir oz bo'shshadi. Lekin Rossiyadan katta madad kutilayapti. To'g'ri, o'ris maktablari ochilishini aytishmoqda, ammo u yerda yerli xalq bolasi kam bo'lar. Biz Mahmudxon Behbudiy yo'lidan borishimiz kerak. U ochgan maktablar barcha uchundir. Unda diniy va dunyoviy ilmlar o'rgatiladi. Quruq diniy bilim bilan xalqni boshqarib bo'lmaydi. Dinimizda yo'q narsalar paydo bo'lmoqda. Harom rivoj topdi. Shaharlar "Yangi", "Eski" shahar degan qismlarga bo'linmoqda. Yangisida ishratxona, ichkilikbozlik do'konlari, qimorxonalar quriladi. Agar oldini olmasak erta-indin bolalarimizning axloqi

buziladi. Nashaxo'rlik avj oladi, deya eshon mezbonlar yuziga razm soldi.

Hamma uning gapini jim eshitardi. Odamlarning bir qismi mehmon nimani ko'zlab bunday fikr yuritayotganini tushunmay o'tirishardi.

Hovli o'rtasida yong'oq tagida oyog'iga ip bog'langan tog' burguti tog'u toshlarga uchib ketish uchun chog'lanmoqda. Tog' burguti shu qafasdan chiqsa, dushmani qulatgudek kuchga ega.

Abdurahmon jevachi eshonning gaplarini jim turib eshitsu-da, bir qancha muddat biror narsa demay amakilari, hamqishloqlariga zimdan nazar tashladi.

Eshon aka aytgan narsaga biz ham tayyor turmog'imiz lozim. Negaki, bosqinchilar bu yerlarga ham keladi degan xabarlar bor. Bir oy bo'ldi, o'ris ayg'oqchilari qishloq oralab qoldi. Bizda qurol yo'q. Ikki-uchta miltiq bilan zambarak to'piga qarshi kurashib bo'lmaydi. Biz kuch to'plab uch-to'rt kundan keyin Jizzax sari yurish qilamiz. Birgalikda kurashmasak, yakka holda dushmani yengib bo'lmaydi. Atrofdagi qishloqlarga odam jo'natamiz. Kelayotgan xavfning oldi olinmasa u erta-indin butun o'lkani bosib oladi. Urf-odatlar bo'lakcha bo'ladi, til asta-sekin unutiladi. Odamlar giyohvand, bolalar kasalmand bo'ladi.

Jevachi jim qolganini ko'rgan mehmonlarning eng yoshi Matlab Mirza gurgungga qo'shildi:

O'rislar hamma yerga o'z qo'rg'onlarini qurdi. Hatto o'zimznikilar qishloqqa kim keldi, kim ketdi barisini pristavga yetkazib turibdi. Ehtiyot bo'lmoq zarur. Ko'p kishini bir yerga to'plamoq xatarli...

Kechasi jevachi eshonni Jizzaxga qadar kuzatib qo'ydi

* * *

Nazarxo'ja eshon so'ri ustida ancha o'tirib qoldi. Toshkentdagi Musaxon dorichi bilan bemaslahat Bog'dondagi jevachi oshnasi bilan qo'zg'olon boshlash haqida bir to'xtamga kelgani xato bo'lmadimikan?

Saratonning issigi ertalabdan yondirsa-da, eshon asta vokzal tomon yo'l oldi. Uning maqsadi Toshkent safari edi.

Eshon Toshkentga yetib kelganida shahar odamlarining yuzida podsho farmonidan norozilik hissini ko'rdi. Balandmachit mahallasi boshiga yetganida esa otdan tushib ariq labida bir oz dam olib, nafas rostladi, ust-boshini to'g'riladi, bet-qo'lini muzdek suv bilan yuvdi. Uning oppoq soqolidan mayda suv tomchilari yerga tomchiladi. Eshon otini daraxt shoxiga boyladi. U Musaxon dorichi eshigining bir tavaqasi ochiqligini ko'rib, xonadon egasining uyda ekanligiga ishonch hosil qildi va asta ovoz berdi:

Uyda kim bor? Assalomu alaykum!

Hovlining etagidagi bog'dan o'rta bo'y, qoshlari siyrak, ziyoli bir kishi eshon tomon shoshib kelarkan:

E, keling, aka, xush ko'rdik. Omon-eson yuribsizmi? Qaysi shamol uchirdi? deya Nazarxo'ja eshon bilan quchoqlashib ko'rishdi. Mezbon mehmonni bog' ichidagi salqin so'riga o'tqazdi. Ichkaridan ikki yosh yigit dasturxon va choynak, piyola keltirib, ular oldiga dasturxon yozdi. Nazarxo'ja eshon hovlisiga qadam ranjida qilgan Musaxon Mirzaxonov Toshkentning ilg'or ziyolilaridan biri edi. Qozon universitetining dorishunoslik kulliyotini bitirgan, shahar dorixonasining rahbari. Ko'p vaqt dunyo kezgan, oq-qoraning farqiga boradigan ziyoli inson, mehmon bilan unchalik uzoq bo'lmagan qarindosh ham edi.

Suhbat tezda qovushib ketdi. Gap asosan Jizzax va Toshkentda podsho farmonini bajarmaslik xususida bo'ldi. Musaxon go'yoki hovlisida tinchgina o'tirsa-da, aslida o'z odamlari orqali qo'zg'olonga zimdan tayyorgarlik ko'rardi.

Xalq ozodlikka, erkka qo'zg'olon orqali ega bo'ladi. Odamlarimiz qurol ishlatishni ham unutilgan bo'lsalar kerak.

Shaharlarimizda esa qurolning o'zi ham yo'q...

Shu payt eshik oldida bir kishi ko'rinib berdi. Musaxon dorichi shu tomonga bordi va noma'lum kishi bilan ikki og'iz shivirlashib gaplashgach, darhol ortiga qaytdi.

Aka, xalq g'alayon ko'taribdi. Shahar dahalarida rus armiyasi xalqni ko'chalardan haydab boshlabdi. Mardikorlikka odam berishdan qat'iy bosh tortganlar ayovsiz jazoga tortilarkan. Kuropatkinning buyrug'i shunday. Ularda kuchli qurol bor. Biz esa qurolsizmiz. Ko'p qon to'kilishi mumkin...

Nazarxo'ja eshon shahar ko'chalarida odamlarning besaranjom yurganliklarini kuzatarkan, Jizzaxga tezroq yetib olish chorasini ko'rdi. Nazarxo'ja eshon Toshkentdan Chinozgacha otini to'xtatmadi. Atrofdagi ko'm-ko'k bog'lar, poyonsiz dalalar, mevasini ko'tarolmay yerga egilgan olmozorlar uning ko'zini qamashtirardi. Uzoq-uzoqlardan turli nav qovun hidini shamol u tomon olib kelardi. Yurtning bir tomoni gullab-yashnayotgan bo'lsa, ikkinchi bir tomonda kurashga tayyorgarlik ketardi.

Jizzaxga yetib kelgan Nazarxo'ja eshon shaharni ari uyasidek to'zg'igan holatda ko'rdi. Chor Rossiyasi armiyasi Jizzaxni qamal qilib turardi. Eshon odamlarni to'plab, xalqni birlashishga, mustamlakachilar va ularning malaylariga qarshi kurashga da'vat etdi. O'sha kunlari Musaxon dorichi yana bir yangilikdan voqif bo'lgandi. Toshkentning bir guruh qozi va mingboshilari Afg'oniston amiriga xat yo'llab, uni Rossiyaga qarshi urush e'lon qilishga chaqirgan. "Bunda Turkiston xalqlari sizni qo'llab-quvvatlaydi", deb yozilgan edi xatda. Oradan ko'p o'tmay xat Balandmachitlik mulla Abdurahmon orqali jo'natilgani ma'lum bo'ldi. Maktub Ko'kcha dahasi qozisi Hoji Abdumalik Abdunabiev tomonidan yozilgan edi.

Turkiston maxfiy politsiyasi bu xatdan xabardor bo'lib, g'alayonni bostirish paytida qo'zg'olon rahnamolari qatori ularni ham qatl etdi.

Turkiston o'lkasini "Qonli saraton" o'z domiga tortib borardi. Rus podshosining vakillari yerli xalqni o'ldirish, uylariga o't qo'yish bilan qo'rqitmoqchi bo'lardi. Ammo sabr kosasi to'lgan xalq bo'yin egmasdi, yana kishan kiyishni xohlamas edi.

* * *

Gubernatorning oldi oynavand uyi qarshisidagi chinor soyasidagi arg'imchoqda uning sevimli qizlari Anna va Mariya bir-biri bilan kim o'zarga o'ynamoqda. Kutilmaganda Mariya arg'imchoqdan uchib ketib chim ustiga tushdi. Uning "Onajon" degan chinqirig'i atrofni qopladi.

Sal naridagi chinor tagida rus arog'iga mol go'shtidan qilingan kabobni gazak qilayotgan ota ular tomon otildi. Ichkaridan gubernatorning xotini, xizmatkor ayol va aroqqa bo'kib olgan rus missioneri Nikolay Ostroumov yetib kelishdi. Qizchanning qo'llari shilingan edi, xolos. Er-xotin uni ko'tarib ichkariga olib kirishdi. Gubernator janoblari aziz mehmonni kuttirib qo'ymaslik uchun tezda tashqariga qaytib chiqdi.

Suhbat qaerda to'xtagan edi? deya so'radi gubernator.

Yerli xalqni qay yo'sinda bo'ysundirish haqida, deya mavzuni aniqlab berdi Ostroumov.

Yerli xalq... o'ylanib qoldi gubernator.

Bu xalq katta madaniyat va ma'rifatga ega, bularda juda katta boylik mavjud. Bu boylik buyuk olimlar, shoirlar, tadqiqotchilar

asarlariidir. Oltin, kumush olib ketilaversa bir kuni tugaydi, lekin xalqning bilimi tugamaydi.

Siz ularning muqaddas kitoblarini yaxshi tushunasiz, janob Ostroumov. Ularning eng zo'r kitoblaridan to'plang, janobi oliylariga sovg'a qilamiz. Evaziga mukofot olasiz!

Gubernator ancha o'ylanib qoldi. Axir oltin-kumushni istagan vaqtda olib ketsa bo'ladi, kitoblarni esa ziyolilar yashirib qo'yishlari mumkin.

Gubernator:

Men yovvoyi xalqdan multiplar va boshqa qurollarni tortib olishga farmon berdim, dedi nihoyat. Hattoki kattaroq oshpichoq ham qoldirilmaydi. Noyob kitoblar esa tezda olib ketiladi. Podsho hazratlari bunday kitoblar ishqibozi ekanliklarini yaxshi bilaman. Mo'g'ullar bu xalqni yozuvidan mahrum qilgan bo'lsa, biz ularni tilidan mahrum etmog'imiz kerak. Aytganday, sizga bir muhim topshiriq bor. Siz o'lkada rus maktablari sonini ko'paytirasiz, shunda ular o'z madaniyati va ma'rifatidan uziladi. Mayli, ko'proq boshqa yurt haqida ma'lumotga ega bo'lishsin. Keyingi masala gazeta masalasi. O'lka xalqlari uchun gazeta nashr eting.

Sizning aytganlaringiz juda ajoyib, janob gubernator, bu topshiriqlaringizni tezlikda amalga oshiramiz. Darhaqiqat, maktab orqali rus madaniyatini mahalBliy xalq ongiga singdirish zarur. Ayniqsa yoshlarga.

Ostroumov shiddat bilan o'rnidan qo'zg'aldi. So'ng yo'l chetida o'zini kutib turgan foytunga o'tirdi-da, chang ko'chada ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Kuropatkin esa Kaufman qurdirgan, qizil eshigiga "Turkiston Gubernatori" deb yozilgan bino ichkarisiga qarab yo'l oldi.

Shahar tashqaridan sokin ko'rinsa-da, daha va mahalBlalarda rus bosqinchilariga qarshi kurash uchun tayyorgarlik ishlari qizg'in ketardi. Aholi yashirin tashkilotlar tuzib, qurollanishni boshlab yuborgan edi. Yurtning erksevar o'g'illari lovullab yonishlari uchun bir uchqun kerak edi. Bu uchqun Jizzaxdan keldi. O'lkada katta taloto'p boshlandi. Samarqand, Farg'ona, Kattaqo'rg'on, Zomin kabi yirik shahar-qishloqlarda podshoga qarshi namoyishlar boshlandi. O'lkaning katta shaharlarida qo'zg'olonga yetakchilik qiluvchi guruhlar tuzildi. Lekin ular bir-birlari bilan doimiy aloqa o'nata olishmadi. Buning ustiga odamlarga qurol yetishmasdi.

* * *

Bog'don pristavi Barilloga mahalliy xalqdan mardikor olish haqidagi farmon kelgan edi. U zimdan bu ishga tayyorgarlik boshlab yubordi.

Abdurahmon jevachi Xorazm qal'asida bundan ancha yillar oldin chor Rossiya armiyasi bilan janglarda halok bo'lgan otasi

Abdujabbor uchun qasos olishga, xalqni ozod, erkin yashash uchun kurashishga chaqirishga ont ichdi.

Odamlar "Mardikorlikka bormaymiz!" deb oyoq tirab olishdi. Bog'donda ham isyon ko'tarildi.

O'roq, ketmon, kaltak, multiq bilan qurollangan piyoda olomon va o'n chog'lik otlididan iborat isyonchilarga Mixin, Nukurt, Safar ota, Uxum qishloqlaridan ham odamlar kelib qo'shila boshlashdi. Jevachi safning oldiga o'tdi va odamlarni Jizzax sari boshladi.

Oq podshoning Farmonini odamlarga yetkazish maqsadida Mirzayor 12 iyul kuni jizzaxliklarning katta guruhini masjid hovlisiga to'pladi.

Masjidga kirib kelgan mingboshining yonida Abulqosim ellikboshi, Qosimxo'ja va Orif oqsoqol hamda ikkita mirshab bor edi.

Mingboshi yuzlarida g'azab o'ti yonib turgan jizzaxliklarni ko'r-di-yu, gapni qisqa qildi:

Mardikorlar ro'yxati tayyor, kelgusi juma podsholik uchun xizmatga tayyor turmoq lozim. Mardikorlik yurtga kelgan to'y.

Ro'yxatdagilar kiyim-kechagini tayyorlasin! Mardikorlar oy borib, omon kelsin, omin!

Mingboshi yuziga barmoqlarini siypadi. Masjid ichida xalqning shivir-shiviri ko'paydi. Ro'yxatni mirza o'qidi. Ro'yxat faqat kambag'allardan iborat edi, unda na biror amaldor, na biror boy, na biror domlaning farzandi bor.

Oraga sovuq sukunat tushdi. Bu to'fon oldidagi dengiz sokinligi edi. Dengizning usti jimirlab tursa-da, tagida bo'ron hayqirardi.

Mingboshi, siz buning barchasi taqdirdan dedingiz. Podsho amri xudo amri dedingiz, deya gap boshladi arabqishloqlik Sodiq dehqon.

Xudoning bandasiga taqdir yozmishi vojibdir! deya mingboshi unga yuzlandi.

Unda nega siz yoki o'g'lingiz ro'yxatda yo'qsizlar, axir podsho sizning eng yaqiningiz-ku! deya bir ozg'in kishi mingboshiga murojaat etdi.

Mingboshining tili aylanmay qoldi. Abulqosim ellikboshi Qosimxo'ja oqsoqolning qulog'iga bir nima deb pichirladi.

Mirshablardan biri tashqariga yo'l oldi. Birdaniga ikki-uch kishi uning yo'lini to'sdi. Masjid eshiklari yopildi. Buni ko'rgan Orif oqsoqol tipirchilab qoldi.

Ro'yxat podshoning vakillari Kaufmon janoblari tomonidan tasdiqlangan, deya mingboshi salobat bilan gap boshlashga urindi. Abulqosim ellikboshi chap qo'lini pastga tushirib, gapni to'xtating deya ishora qildi.

Olomon orasidan:

Siz avval savolga javob bering! degan qichqiriqlar yangradi.

Mingboshi:

Jim, jim! degan qizarib-bo'zarib olomonga nimalarnidir tushuntirmoqchi bo'ldi.

Shu payt masjid eshigi oldida turganlardan biri baland ovozda qichqirdi:

Bular bilan gaplashish befoyda, baribir boy boyga boqadi, suv soyga oqadi.

Oraga sovuq sukunat tushdi. Bu to'fon oldidagi dengiz sokinligi edi. Dengizning usti jimirlab tursa-da, tagida bo'ron hayqirardi.

Mingboshi, siz buning barchasi taqdirdan dedingiz. Podsho amri xudo amri dedingiz, deya gap boshladi arabqishloqlik Sodiq dehqon.

Xudoning bandasiga taqdir yozmishi vojibdir! deya mingboshi unga yuzlandi.

Unda nega siz yoki o'g'lingiz ro'yxatda yo'qsizlar, axir podsho sizning eng yaqiningiz-ku! deya bir ozg'in kishi mingboshiga murojaat etdi.

Mingboshining tili aylanmay qoldi. Abulqosim ellikboshi Qosimxo'ja oqsoqolning qulog'iga bir nima deb pichirladi.

Mirshablardan biri tashqariga yo'l oldi. Birdaniga ikki-uch kishi uning yo'lini to'sdi. Masjid eshiklari yopildi. Buni ko'rgan Orif oqsoqol tipirchilab qoldi.

Ro'yxat podshoning vakillari Kaufmon janoblari tomonidan tasdiqlangan, deya mingboshi salobat bilan gap boshlashga urindi. Abulqosim ellikboshi chap qo'lini pastga tushirib, gapni to'xtating deya ishora qildi.

Olomon orasidan:

Siz avval savolga javob bering! degan qichqiriqlar yangradi.

Mingboshi:

Jim, jim! degancha qizarib-bo'zarib olomonga nimalarnidir tushuntirmoqchi bo'ldi.

Shu payt masjid eshigi oldida turganlardan biri baland ovozda qichqirdi:

Bular bilan gaplashish befoyda, baribir boy boyga boqadi, suv soyga oqadi.

Vaziyat yomonlashganini anglagan mingboshi yon tomondagi eshikdan o'zini tashqariga urdi. Shu payt "O'ldir mingboshini!" degan hayqiriq eshitildi. Mingboshi masjid yonidagi choyxonaga kirib yashirinmoqchi bo'ldi. Ammo yo'ldan o'tib borayotgan kulol yigit uni choponidan tortib qoldi. Mingboshi yerga yuztuban yiqildi. Kulol katta tosh bilan mingboshining boshiga urdi. Boshi yorilgan mingboshi oqayotgan qonni sallasi bilan to'xtatishga urindi. Shu payt masjiddan dengizday toshib chiqqan olomon mingboshini tosh bilan ura ketdi. Mingboshi o'sha joyda jon taslim qildi.

Abulqosim ellikboshi, Qosimxo'ja va Orif oqsoqollar esa ust-boshlari yirtilgan, tosh-kesak do'li ostida mirshablar qurshovida pristav qarorgohi tomon qochib borishardi. Biroq ularning orqasidan olomon yetib keldi.

Jizzaxliklar mingboshi mahkamasiga yopirilishdi. Uyga o't qo'yildi. Mahkamadagi ro'yxat qidirib topildi, barcha qog'oz-daftar, anjom-aslaha sindirildi, yondirildi. Shaharning har yer-har yerida miltiq ovozi eshitilib qolardi. Kechasi shaharda yong'in boshlandi, rus askarlari qo'zg'olonchilarga qarata o'q uzishga kirishishdi. Odamlar turli tomonlarga qarab tarqalib ketishdi.

O'ratepaliklar, zominliklar, rovtoliklar urug'-urug' bo'lib o'z mahallasini rus askarlaridan qo'riqlashga kirishdilar. Ammo aholida qurol yo'q edi...

Har tomonda yong'in, achchiq tutundan hech narsani anglab-ko'rib bo'lmasdi.

Ertalab shahar markazida aholi bilan uchrashgan Rukin:

Xalqqa qayishmagan mingboshining ahvoli shu! deya o'zini odamlarga mehribon qilib ko'rsatdi.

Tilmoch uning so'zlarini tarjima qilib turdi. Rukin vaqtdan yutishi kerak edi. Shu payt yangi shahar tomondan ketmon, panshaxa ko'targan, qutilarga tosh solib olgan olomon yetib keldi. Ikki daryo bir bo'ldi. Uning to'lqini shiddatli edi. Ular Rukin, kapitan Zotoglavov va Komil mirshabni o'ldirdilar.

Polkovnik Ivanov va AfanasKjev otryadi yetib kelib, olomonni o'qqa tutdi. Rus kazaklari ayol yo erkak, keksa yoki yosh, deb o'tirmadi. O'q yomg'iri shunday yog'diki, hattoki uy ichida bekinib turganlar ham omon qolmadi.

Jizzax qamoqxonasi mahbuslar bilan to'lib ketdi. Mahbuslarning ko'pi og'ir yarador edi. Ular tor, kichik xonalarda bir-birlarining ustida qalashib yotar, sassiq hid hamma yoqni qoplagan, yig'i-sig'i ovozlari tinmasdi. Jizzaxliklardan rus kazaklari Rukin, Mirzayorlar uchun shunday o'ch oldi. Bu vaqtda Forish sari AfanasKjev qo'shini ketib borardi.

Jizzax o't ichida qoldi. Butun-butun mahallalarga rus askarlari o't qo'ydi. Odamlar ayovsiz o'qqa tutildi.

Ertasiga, 16 iyul kuni zamonaviy harbiy qurol-yarog' va texnikaga ega bo'lgan polkovnik Ivanov qo'zg'olonchilarni qora qonga botirdi. Jizzaxning ayollari, qizlari nomusi toptaldi. Shahar oziq-ovqatsiz qoldi. Ko'chalar qon bilan qoplendi. Ocharchilik boshlandi. Podsho Nikolay II malaylari mahalliy yigitlarni mardikorlikka jo'natdi. Necha-necha Jizzax yigitlari Rossiya o'rmonlarida kafansiz ko'mildi. Hattoki yosh bolalar ko'chalarda otildi, Yerjar cho'liga haydab yuborildi. Yerjarda esa odamlar suvsizlikdan nobud bo'ldilar.

* * *

O'sha kuni Forishda ham bosqinchilarga qarshi kurash kuchaydi.

Jevachi odamlari Jizzax yo'lini o'z nazoratlariga olishgandi.

Peshinga yaqin uzoqdan ot mingan bir yo'lovchi ko'rindi. Uning oti zo'rg'a yurib kelardi. Kun issiqligidanmi, chavandoz ot ustida mast kishidek chayqalib kelardi.

Jevachining odamlari uni bir zumda ushlab olishdi. Bu pristav aloqachisi Sibirsev degan kishi edi. Uning yoni tintib ko'rilganda xat chikdi. Bu xat Jizzaxdan jazo otryadi chaqirish haqida edi.

Qo'zg'olonchilar choparni o'ldirdilar. So'ng Forish pristavi Barilloni qidirishga tushdilar. Ammo jazo otryadi kechikkanidan shubhaga tushgan Barillo allaqachon qaygadir kochib ketgandi.

U osmonga uchdimi, yerga kirdimi yo'q edi. Barillo yashagan qo'rg'on jim-jit. Xizmatkorlar esa darvozani berkitib, yashirinib olishgan. Qo'zg'olonchilardan biri xalqni qo'rg'on tomon boshladi.

Biz ularni yo'q qilishimiz kerak! dedi u. Bizni odam o'rnida ko'rmaganlarga shafqat qilmasligimiz kerak!

Qaytinglar, axir ular hech kimga yomonlik qilmagan, dedi jevachining ukasi Bobobek.

Ammo olomon unga quloq soladigan ahvolda emas edi. Barillo yashayotgan qal'a tepasida bir to'p tog' burgutlari charx urib uchib yurardi. Qorong'i tushgach ketmon, bolta ko'targan odamlar pristav qo'rg'onining darvozasini buzishdi. Qo'rg'onida xizmatkorlardan boshqa hech kim yo'q edi. Shu payt Bobobek otlar uchun xashaq saqlanadigan yemxonada Barilloning xotini Natasha Yankovskaya va qizini ko'rib qoldi. U o'zini ularni ko'rmaganga solib eshikni yopib qo'ydi, xizmatkor juvon Galina Klyuevani esa somonxonaga yashirdi. Keyin orqasidan kelayotganlarga qarata:

Bu yerda hech kim yo'q, dedi.

Bobobek odamlarni tinchitish maqsadida yolg'on gapirdi. Agar rostini aytsa, begunoh ikki ayolning qoni to'kilishi aniq edi.

Olomon toshqin suvdek orqaga qaytdi. Yo'lda ikki soldatni ushlab olib, o'lasi qilib kaltaklashdi. Bu vaqt Barillo xotini va qizini tashlab, o'z jonini saqlash maqsadida Qizilqumga qarab qochib qolgan edi.

Olomon pristav yashaydigan uyga o't qo'ydi. Pristavning xonadoni olov ichida qoldi. Olomon qishloqqa qaytib keldi. Kechqurun tunning qorong'iligidan foydalangan Bobobek yana otxonaga keldi va titrab-qaltirab o'tirgan ona-bolani otxonadan olib chiqqach, ularni akasining uyiga olib borib yashirib qo'ydi. Bu yer xavf-xatardan xoli edi. Barilloning bir necha rus xizmatkori va qo'riqchilaridan ikki kishi olov ichida qolib ketdi. Ularning dod-faryodiga hech kim quloq solmadi. Qasoskor xalqni endi to'xtatib bo'lmasligini ruslar tushunib yetishdi. Dahshatli voqealarni o'z ko'zlarini bilan ko'rgan ona-bola bu xonadonda bir hafta tinch yashashdi. Ular oldiga ayollardan bo'lak hech kim kirmas edi. Ona-bola bu holatga asta-sekin ko'nika boshlashdi. Dastlab qo'rqib non, mayiz bilan tamaddi qilishgandi, keyinchalik mol go'shti solingan ovqatlarga ham o'rganishdi. Hayot hayot-da, inson barcha narsaga ko'nikadi. Ular ham yangicha hayotga asta-sekin moslasha boshlashdi.

Abdurahmon jevachi Bobobek qilgan ishni xotinidan eshitgan bo'lsa-da, ukasiga bir-ikki kun indamadi. O'zini hech narsani bilmaydiganday tutdi. Juma kuni peshindan so'nggina Bobobekni oldiga chaqirdi.

Mayli, g'ayridin bo'lsa-da, ayollarni qutqarib savob ish qilibsana. Faqat buni qishloq ahli bilmasin. Ular hozir yaxshi-yomonning farqiga bormay turishibdi. Sening qutqarganingni eshitishsa, noto'g'ri tushunishlari mumkin.

Bobobek akasiga e'tiroz bildirilmadi. Yangasi oldiga qo'ygan sho'rvani non to'g'rab ichdi-da, Burgutqoyadagi tosh qal'aga chiqib ketdi. U o'zini olqor ovi bilan ovutmoqchi edi. Ov uning sevimli mashg'uloti. Bu qal'aning to'rt tomoni tosh bilan o'ralgan bo'lib, ikki tosh orasidagi yo'lakka bir odam sig'ardi. Qal'a ichida buloq bo'lib, u yozin-qishin qaynab, mavjlanib turardi. Buloqning yozda sovuq, qishda issiq suvi shunchalik mazaliki, uni to'yib ichgan kishi bir-ikki kun chanqamaydi ham. Agar akasi ko'nsa Barilloning xotini va qizini qo'zg'olon bosilguncha shu qal'aga yashirib qo'yadi. Biroq Bobobek toqqa ketganidan keyin jevachi ona-bolani o'z qo'rg'oniga kuzatib qo'ydi....

Ertalab Abdurahmon jevachi o'z odamlarini savdo karvoni bilan Buxoroga jo'natdi. Jevachi ularga Buxorodagi tanishlaridan qurol olib kelishni topshirdi. AxirB "Quruq qoshiq og'iz yirtar" deb bekorga aytmagan. Yovga qarshi ikki-uch miltiq, ketmon, o'roq bilan kurashib bo'lmaydi-ku. Ertaga qanday kunlar keladi, yolg'iz Ollohga ayon. Shundan keyin jevachi Bog'don bekligidagi Mixin, Qulba, Uchma, Nurak, Safar ota qishloqlari oqsoqollariga odam jo'natdi. Har kuni Jizzaxdan vahimali xabarlar kelib turibdi. Abdurahmon jevachi uyga kiradi, tashqariga chiqadi, sira ko'ngli yorishmaydi. Barilloning xizmatkorlari ko'payganligi haqidagi xabar jevachini hushyor torttirdi. Ular pulemyot bilan qurollangan, deya xabar yetkazdi xufyalardan biri.

Jizzaxda boshlangan qo'zg'olon xabari o'sha kuniyoq Forishga yetib kelgandi. Abdurahmon jevachi ukasi Bobobekni eski tanishi Nazarxo'ja eshon huzuriga jo'natdi. Eshonning hovlisi shahar markazida bo'lib, o'sha kuni Jizzaxning barcha mahalla oqsoqollari, bundan tashqari O'smat, Zomin, Forish bekligidan ham vakillar shu yerga to'planishdi.

Nazarxo'ja eshon jo'shib so'zladi:

Biz bugun bu yerga el va yurt ozodligi uchun, farzandlarimizga Najmiddin Kubro, Amir Temur, Muqanna, Manguberdi kabi bobolarimiz dushmanga qanday kurashganini yetkazish uchun to'plandik...

Yig'ilish juda qisqa va aniq bo'ldi. Mahalla oqsoqollari bitta-bittadan bo'lib eshon hovlisini tark etishdi. Vakillarning xavf-xatarsiz o'z manziliga yetib olishi uchun eshon o'z odamlarini ularga qo'shib yubordi. Eski qadrdoni jevachining ukasi Bobobekni Ko'hnabozorgacha kuzatib borish uchun ikki kishini qo'shib jo'natdi.

Kechqurun Abdurahmon jevachining uyiga atrofdagi Mixin, Qulba, Uchma, Safar ota, Qorabdol qishloqlaridan maslahat uchun o'ndan oshiq kishi to'plandi. Jevachi rahbarligida dushmanga zarba berish yo'l-yo'riqlari ishlab chiqildi.

Hamma qurollanmog'i lozim. Eng avvalo ularni qishloqlarga kiritmasligimiz, mardikorlikka boradigan yoshlarimizni olib qolish uchun bel bog'lamog'imiz kerak. Ozod va hur o'lkani o'ris imperatori askarlari oyog'i ostida toptalishiga yo'l qo'ymaymiz.

Yig'ilganlar bu ko'rsatmani bajarish uchun o'z qishloqlariga jo'nab ketishdi.

Kimdir darvozani hovliqib qamchi sopi bilan urdi.

Abdurahmon jevachi shoshib shu tomonga yurdi.

Oti ko'pikka botgan bir notanish kishi darvoza oldida hansirab turardi.

Assalomu alaykum, aka! Men Jizzaxdanman. Meni Nazarxo'ja eshon jo'natdi. Jizzax o't ichida qoldi. Hammayoq yondirildi. O'ris otryadi AfanasKjev degani boshchiligida Forish tomon kelmoqda. Ertaga tongda yetib keladi. Xalqni ularga qarshi turg'azmoq kerak.

Chopar yana nimalardir demoqchi edi, ammo saraton issig'iga va yo'l azobiga chiday olmay kesilgan daraxtdek asta qiyshaydi. Abduraxmon jevachi uni suyab qoldi va asta ko'tarib yong'oq ostidagi supaga olib borib o'tqazdi. Ichkaridan jevachining katta o'g'li dasturxon ko'tarib chiqdi. Chopar bir-ikki piyola sovuq choyni yutoqib ichgandan keyingina o'ziga keldi.

Men o'rislarni Oqtuproq qal'asi oldida ko'rdim. Tog' oralab kelishmoqda. Eshon aka sizdan odamlarni to'plab, ularga qarshi turishni, askarlarni qishloqqa kirgizmaslikni iltimos qildi, dedi xabarchi hamon entikib nafas olarkan.

Abdurahmon jevachi xabarchining gaplarini eshitib yov endi begunoh xalqdan qasos olishiga, bu yo'lda hech narsadan qaytmasligiga ishon hosil qildi, negaki Ko'hnabozordan uncha uzoq bo'lmagan tepaliklarda pristav Barilloning odamlari keyingi kunlari yana ikkita to'p o'rnatib, ularni qishloqqa qaratib qo'ygan edi. Barillo allaqachon Qizilqumdan qaytib kelgan. Qishloq tepalikdan yaqqol ko'rinib turadi.

Albatta, birgina qishloq ahli bilan yovga qarshi kurashib bo'lmaydi. Ko'plashmoq kerak. Ko'p qurol kerak. Yovning qo'lida qanchalab miltig'i, to'plari bor. Abdurahmon jevachi tezda o'g'li Savronni Mixin bekligiga, Matlabni Uchma va Safar ota bekligiga, Davronboyni esa Sintob bekligiga jo'natdi.

Nihoyat qo'shni qishloqlardan odamlar ot va eshakda, piyoda yetib kela boshlashdi. Ularning bir qismi miltiq bilan qurollangan edi. Ko'pchiligi esa qurolsiz. Aksariyat ketmon, panshaxa bilan qurollangan. Sintobliklar negadir bu ishga bosh qo'shishmadi. Buxoroga ketgan yigitlardan yaxshi xabar kelmadi. Buxoro xoni Amir Olimxon jevachi bilan uzoqroq qarindosh bo'lsa-da, uning nomidan kelgan maktubga javob bermadi. Amir shu kunlarda aysh-ishratga mukkasidan ketgan edi.

Abdurahmon jevachi to'plangan xalqni Jizzax sari boshladi. Bog'don cho'lini chang-to'zon qopladi. Qo'zg'olonchilar bolta, ketmon ko'tarib kapitan AfanasKjev boshlab kelayotgan, tish-tirnog'igacha qurollangan rus askarlariga qarshi ketib borardi, ular orasida ayollar ham bor edi.

XVI asrda Abdullaxon qurdirgan suv omboridan o'n chaqirimcha berida ikki taraf yuzma-yuz bo'ldi. Ikki o'rtada jang qizidi. Rus soldatlari to'p va pulemyotlarni ishga soldi. Odamlar tutdek to'kildi, lekin qaysar va mard tog'liklar dushman ustiga yopirilib kelaverdi.

Jang qizigan mahal tog'liklardan biri ruslarning bitta pulemyotini egalladi va darhol ularga qarata o'q uza boshladi. Ammo qizib ketgan pulemyot birdan tarillatib o'z uzishdan to'xtadi. Uni sovutish uchun ustiga suv quyish kerak edi. Ammo tog'lik erkak buni bilmasdi. Shu sababli hayron bo'lib pulemyotning uyoq-buyog'iga qarayotgan mahal askarlardan biri uni otib o'ldirdi.

AfanasKjev jon-jahdi bilan isyonkorlarni Jizzaxga o'tkazmaslik harakatini qilardi.

Ko'kada esa bir gala tog' burguti to'p bo'lib uchib yurardi. To'satdan jevachining uyida saqlangan burgut rus askarlaridan biriga tashlandi. Askar yuzini kafti bilan to'sganicha dod solib qulab tushdi. Uning panjalari orasidan qon oqardi. Burgut askarning bir ko'zini o'yib olgandi.

AfanasKjevning o'zi askarlarga ibrat bo'lish uchun kichkina tepalikka chiqdi va:

Tezda bizga qo'shimcha kuch yetib keladi, bardam bo'linglar! deya baqirdi. Ular bu yovvoyi xalqni tumandek tarqatib yuboradi. Biz ham ularni shunday savalaylikki, tug'ilganlariga pushaymon bo'lishsin!

Zambaraklardan otilgan o'q isyonchilar ustida yog'ildi. Odamlarning pashshaday halok bo'layotganini ko'rgan Abdurahmon jevachining ko'zlarida g'azab o'ti chaqnadi. Uning o'g'illari ham janggohning har tomoniga tarqab ketishgandi. Jevachidan uncha uzoq bo'lmagan yerda katta o'g'li bir yo'la ikki rus askari bilan qilichbozlik qilardi. Urush o'z oti bilan urush. Unda hech kim dushmani ayamaydi. Cho'l to'kilgan inson qonidan qip-qizil lolazorga aylandi go'yo.

Yov chekinayotganini ko'rgan Abdurahmon jevachi jarlikni aylanib o'tar ekan, ko'zi toshga bosh qo'yganicha o'lib yotgan ayolga tushdi. Ayol ko'krigidan ikkiga bo'linib tashlangan edi. Nariroqda esa yana bir o'lik ayolni bir yarim yoshlardagi bolakay emib yotardi. Jevachining ko'zlarida yosh tirqiradi. Yov orqasidan quvib kelayotgan bo'lsa-da, to'xtab, birinchi ayolni choponi bilan o'rab qo'ydi. Ikkinchi ayolning bolasini olishni esa ortidan kelayotgan bir hamqishlog'iga buyurdi.

Bu paytga kelib rus askarlarining o'q-dorisi tugay boshlagandi. Shu sababli ular Jizzax tomon chekinishga tushishdi. Shubhasiz, rus askarlari madad kutayotgan edilar.

Kechga tomon, jang tugaganidan so'ng jevachi ukasi Bobobekka Matlab, Savron, mulla Muhammad, Qurbon, Tursunboy va Ergashni topishni buyurdi. Ular Abdurahmon jevachi atrofida davra qurib, yerga tikilganicha jim turishdi.

Atrofga qorong'ulik tushganda odamlarning bir qismi cho'l orqali Ko'hnbazor qishlog'iga yetib kelishdi. Qishloq o't ichida edi. Yondirilgan uylardan achchiq tutun osmonga ko'tarilar edi.

Tarixda keyinchalik Jizzax qo'zg'oloni deb atalgan mashhur qonli jang boshlandi. Bu voqea 1916 yilning saratonida yuz berdi. Har ikki tomon jangga qiyqiriqlar bilan kirdilar. Ikki kun davom etgan jangning birinchi kuni forishliklar rus askarlari ustidan g'alaba qozongandek bo'ldi. Rus askarlari shoshib qolishdi. G'alaba yaqinday edi. Jevachi ruslarga qarshi kurashda harbiy topqirlik ko'rsatdi. U uzokdan turib palaxmon toshi otadigan mergan yigitlarni to'plab, ruslarga qarshi jangga soldi. Palaxmon toshotarlarning oldiga esa tajribali, jang ko'rgan, katta yoshdagi odamlarni tayin etdi. Yoshlarning bir qismini tosh to'plashga yo'lladi. Soy ichida esa maxsus pistirmalar tashkil qildi. Pistirmada ayollar pitali multiplarni o'qlab, erkaklarga yordam berib turishdi. Ayniqsa ko'hnbazorlik ayollar boshqalarga ibrat bo'lishdi. To'g'ri, jang ko'rmagan ayollar, yosh bolalar orasida talofat katta bo'ldi.

Dastlab rus askarlari parokandalikka uchrasa-da, ularga Jizzaxdan qayta-qayta madad kuchlari kelib qo'shilaverdi.

Qo'zg'olonchilar safi esa tezlikda kamayib borardi. Ochlik va suvsizlik ham o'z kuchini ko'rsatdi. Rus askarlari quolsiz xalqni cho'lda to'pga tutdi. Qon daryo-daryo bo'lib oqdi.

Abdurahmon jevachi odamlarni ruhlantirmoq uchun goh chap tomondan, goh o'ng tomondan urush maydoniga o'zini urar, har safar jangga kirganda o'zining jonini halokat girdobiga otardi

Ivanov otryadi bilan toshlar orasidan pana joy qildi, jevachining odamlarini uzoqdan kuzatarkan, yonidagi ofitserlarga uqdira ketdi:

Bu xalqning bilgani ochiq maydonda mardlarcha urushish. Biz esa qal'aga bekinamiz yoki devor ortida pusib turamiz. Bir necha qishlog'ini bosib oldik. Peshonasidan turib otdik, birortasi yashirinay demadi. Atigi bir marta shu cho'lda ochiq maydonda urushmoqdamiz. Bular ana shunday qaysar xalq. Har doim hushyor bo'lmoq kerak.

Cho'l uzra tun o'z sepini yoyganda har ikki tomon orqaga kaytdi. Rus askarlari Abdullaxon bandiga borib, sharshara atrofida ertaga bo'ladigan jangga tayyorgarlik ko'rishdi. Abdurahmon jevachi esa otlar tuyog'i ostida mayib bo'lgan odamlarni, o'lganlarni to'plab soy ichiga tushdi. Tepalikka yigitlardan qorovul qo'ydi. Shundan keyin u odamlarni bir joyga to'plashga harakat qildi. Yaradorlar va o'lganlar ko'p edi.

Ertasiga rus askarlarini forishliklar tosh, multiq bilan qarshi oldilar. Ivanov otryadiga Jizzaxdan AfanasKjev otryadi madadga keldi. AfanasKjev otryadini jevachi omon qolgan ozgina odami bilan, benihoya charchagan, holsiz ahvolda kuchsiz kutib oldi.

Ikki o'rtadagi kurash uncha uzoq davom etmadi. Quolsiz aholiga nisbatan to'plar ishlatildi.

Odamlar otsiz, oziqsiz holda rus askarlariga qarshi turib qolishdi. Abdurahmon jevachi o'zining xatosini tushunib yetgan edi: xalq erki va ozodligi uchun to'rt oyqoqli bo'ri bilan kurashgandek kurashib bo'lmas ekan.

Jevachi afsus-nadomatlar ila odamlarni bir yerga to'plashga kirishdi. So'ng kechasi ayol va bolalarni olib Ko'hnbazor qishlog'iga qaytib keldi. Ertasiga ertalab uning uyi oldiga xalq to'plandi. Qishloqqa ruslar ancha yaqinlashib qolgan edi.

Abdurahmon jevachi odamlarga qarata dedi:

Biz ozchilik qoldik. Yomon urushmadik. Lekin endi orqaga qaytish kerak. O'ris askarlari o'nlab shahar va qishloqlarning xalqini qirishga, kulini ko'kka sovurishga, o't qo'yishga tayyor! Biz odamlarni va qishloqlarni saqlab qolmog'imiz kerak...

Ertasiga rus armiyasining madad kuchiga tayangan AfanasKjev Bog'donga yetib keldi. Qishloqlar to'pga tutildi. Ikki yarim ming xonadondan iborat Ko'hnbazor qishlog'i olov ichida qoldi. Birinchi bo'lib qishloqdagi machitga o't qo'yildi. Ko'plab kitoblar olovga tashlandi. Masjid ichida yonayotgan kitoblarga tikilganicha mulla Muhammad yig'lab o'tirardi. Oradan ikki kun o'tib ruslar uni ham olib ketishdi. Mulla Muhammadning kampiri o'g'illari Javlon, Hamrolarni olib Garashaga yaqin bo'lgan Dovtepa qishlog'idan makon topdi. Keyinroq mullaning singlisi Chuchuk ham ularga kelib qo'shildi. Bu ayol akasi dardida yig'lay-yig'lay ko'z yumdi.

Xalqning qo'y-echkilari va boshqa mollari haydab ketildi. Hattoki ayrim joylarda mol boqib yurgan yosh bolalar ham qilichdan o'tkazildi. Rus askarlari ot-aravalarga talangan mol-mulkni ortib, poda-poda mollarni haydab Jizzax sari yo'lga tushishdi. Odamlar tog'-toshlar orasiga jon saqlash uchun qochib ketgan. Ularning bir qismi esa Chelak, Poyariq, Samarqand tomonlarga bosh olib ketdi. Yov ularning ham aksariyatini yo'llarda ushlab olib, ko'pini yo'q qilib yubordi. Ko'hnbazorda shatalib urug'ining barcha katta yoshdagilari xalq ichida otib tashlandi. Abdurahmon jevachini esa qo'l-oyog'iga kishan solib aravada Jizzaxga olib ketishdi. Uning o'g'illaridan ikkitasi otasi bilan birga olib ketildi.

Jevachi keta turib xalqqa murojaat qilishga ulgurdi:

Sizlar meni unutmang, men ozodlik yo'lida qurbon bo'laman. Biz yengamiz. Men xalqim uchun, otam uchun qasos ololmadim. Bu meni qiynayotgan armondur. Men yoshimni yashadim, bu yog'iga Olloh biladi. Ozodlik va erk uchun kurashish kerak. Hali zamon o'zgaradi. Yurt ozod va hur bo'ladi. Yurti mard va qo'rqmas farzandlari boshqaradigan davr uzoq emas. Yuz yilda yer, ellik yilda el yangilanadi. Ozod va hur zamon albatta keladi. Uni mening avlodlarim ko'radi.

Shu payt rus askari miltig'i qo'ndog'i bilan uning boshiga urdi...

Arava jo'nab ketdi. Odamlar ko'zda yosh bilan jevachini kuzatib qolishdi...

Asirlar Jizzaxga ikki kunda yetkazib kelindi.

Shahar qamoqxonasi. Unda yuzlab odamlar og'riq azobidan ingranmoqda.

Odamlar orasidan surila-surila Nazarxo'ja eshon burchakda yotgan Abdurahmon jevachi yoniga yetib keldi. Eshonning badanida sog' joy qolmagandi. Uning o'zi ham zo'rg'a nafas olar edi. Uzun soqolida ham qon qotib qolgan. Eshonning bir ko'zi umuman ko'rmay qolgandi.

Eshon jevachi yoniga bazo'r yonboshladi.

Tuzukmisiz, inim. Ko'p qayg'urmang, bu kunlar o'tib ketadi. Samarqandda bir guruh do'stlarimiz Rossiya Davlat dumasiga xat yozishibdi. Ularga ma'rifatli inson Behbudiy bosh ekan. Oq podshoning farmonidan so'ng bir biz emas, o'lkaning barcha muzofotlarida norozilik harakati avj olgan. Bizning bitta xatomiz shuki, siyosiy va markazlashgan rahbarga ega bo'lmadik. Kuchlar nisbati ham teng bo'lmadi. Oramizdagi sotqinlar ular tomonga yon bosib turdi. Bunday kurash davrida doim sotqinlar bo'lgan, bundan keyin ham bo'ladi.

Bir narsadan afsusdaman. Qurol bilan yordam berish o'rniga Samarqand va Toshkentdagi, hattoki Buxorodagi tanishlarimiz, mahalliy amaldorlar ham Oq podsho odamlariga ko'mak ko'rsatishdi. Shunga yuragim achishadi.

Jevachi asta chap yonboshiga ag'darildi. Uning gapirishga ham darmoni yo'q edi. Uch oydan buyon tor, zax xonada och va yalang'och, qiynalib vaqt o'tkazardi. Har ikki-uch kunda tergovchining tinkani quritadigan savollar berishi ham joniga tegib bo'lgandi.

Nihoyat jevachiga bir amallab tut talqoni orasiga solingan xatni yetkazishdi. Xat juda qisqa edi: "Rossiya dumasida Mustafo Cho'qaev Oq podsho odamlari bilan uchrashdi. Jizzaxdagi voqealarni ularga yetkazishdi. Sizlarni ozod qilishar ekan".

Xat jevachiga biroz umid bag'ishladi. Lekin NazarBxo'ja eshon bunga ishonmadi. Eshonning fikricha, bu yerdagi qo'zg'olon, xalq noroziligi haqida Oq podshoga yolg'on ma'lumot beriladi.

Oradan yana bir oycha vaqt o'tgandan keyingina Jizzaxga Rossiya Dumasi vakillari va Mustafo Cho'qaev yetib kelishdi.

Vayronalarni o'z ko'zi bilan ko'rar ekan, Cho'qaevning ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Zero, Cho'qaev avval ko'rgan Jizzax shahri qo'rg'onidan hech narsa qolmagandi. Jizzax endi xarobazor edi.

Biroq Oq podsho vakili pinagini ham buzmasdan "Yovvoyilarning jazosi shu!" deb qo'ydi jahl bilan. Mustafo Cho'qaevning ensasi qotdi, ammo indamadi. Cho'qaev Dumada Jizzaxdagi voqealar haqida gapirganida ham Duma a'zolari uning gapini eshitmadi.

Xalq dardini tinglaydigan odamning o'zi yo'q edi. Bu haqda keyinchalik "Najot" gazetasida "Haq olinur... kurashib... qon to'kib olinur" degan xulosali maqola bitildi. Tushungan tushundi...

Jevachi yo'lda ancha o'zini oldirib qo'ygandi. Shunga qaramasdan uni o'z boshiga tushgan azob emas, xalq boshiga tushgan kulfat qiynardi. Endi xalq qanday yashaydi? Erta-indin qilichini ko'tarib qish keladi... Jevachi faqat shu haqda o'ylandi. Sassiqlik turma xonasida kallasining qon oqayotgan yeriga tuya chakmonidan bir parcha kuydirib bosdi. Shundan keyin ancha o'ziga kela boshladi. Asta-sekin atrofdagilarni taniy boshladi. Jizzaxlik Nazarxo'ja eshon, Ziyo qori, xalqni kurashga chorlagan qirg'iz Doniyolbek, Nuriddin hoji kabi eski tanishlarini ko'rdi. Nari borsa o'n besh kishi sig'adigan tor xonada oltmishdan ortiq mahbus yotardi. Mahbuslar ochlik va tashnalikdan, og'ir kaltak zarbidan o'la boshladi. Odamlar ochlikdan ustlaridagi kiyimlarini yeya boshlashdi.

Shunday kunlarning birida tinka-madori qurigan Abdurahmon jevachini so'roqqa chaqirishdi. U oyog'ini arang sudraganicha xonaga kirdi. Xona to'rida shopmo'ylov tergovchi Ivanov gerdayib turardi. Tilmoch uning so'zlarini tarjima qilib turdi.

Xo'sh, sen davlatga qarshi nega bosh ko'tarding? Uning mahkamalariga o't qo'yib, bosib olishga harakat qilding?

Men hech kimning yerini, yurtini bosib olmadim. O'z uyim, xalqim, farzandlarim, Vatanimni himoya qildim. Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib oldi, ko'plab machitlar buzildi, kitoblar yoqib yuborildi, aqlli kishilar quvg'in qilindi, odamlarning tinka-madorini quritdi. Biz ozod Vatan qurmoqchimiz! Bizda tog' burguti bor, u bolasini o'zi uchiradi, shuning uchun kurashadi ham. Lekin men o'sha qushcha bo'la olmadim...

Uning tomog'iga bir narsa tiqildi. Tilmochdan uning so'zlarini eshitgan Ivanov istehzoli kuldi:

Hali ko'rasan, seni dorga osamiz!

Jevachi o'limi muqarar ekanligini bilib turardi.

Uni o'sha tor xonaga qaytib olib borishdi. Abdurahmon jevachining badanidagi tayoq zarbidan ko'kargan joylari yiringlab ketgandi. Xonadagi qo'zg'olonchilarning ko'pchiligini so'roq qilib ham o'tirishmadi.

Oradan bir oy o'tib tashnalik va ochlikdan sillasi qurigan qo'zg'olonchilarni dala sudi qaroriga ko'ra dorga osishdi. Jevachi dor tagida bir zum osmonga qarab turdi. Ko'm-ko'k osmonda bir juft oppoq burgut bolasi bir-birini quvib charx urardi.

Shu mahal Ivanov:

Agar sen xalq oldida tavba qildim desang ozod bo'lasan! dedi.

Bu gapni eshitgan jevachi Ivanovga shunday nafrat bilan qaradiki, u beixtiyor ko'zlarini olib qochdi.

Yo'q, men sotqin emasman. Men ozodlik yo'lida kurashdim, deya javob qaytardi jevachi. So'ng boshini mag'rur ko'tardi va dor maydoniga olib kelingan odamlarga qaradi: Xalqim, men sizlarni bosqinchi yovdan qutqarib ololmadim! Afsuski, xalq ozod bo'ladigan kunlarni ko'rish menga nasib etmadi. Biroq Vatanim ozod bo'lgan kunlarni mening avlodlarim, xalqim albatta ko'radi. Biz ozod bo'lamiz! Alvido! Xalqimga saodat ber, farzandlarimni omon saqla, Tangrim! Bilib-bilmay qilgan gunohlarimni kechirgin. Ollohu akbar!

Abdurahmon jevachi o'z boshini dor sirtmog'iga soldi. So'ng Bir zum dor ipi tebranib turdi, tana jimib qoldi.

Dorga osilgan o'n to'rt kishining jasadi uch kungacha arqonda qolib ketdi...

Nihoyat osib o'ldirilgan barcha qo'zg'olonchilar jasadi tunda yashirincha Samarqandga olib ketildi va Murod avliyo qabristonida dafn etildi.

Umarqul Buxorov, Ko'hnabozor qishlog'idan aka-uka Haydar va Rahmon Qurbonovlar, Omon Ibrohimov, Matlab Quvnaqov, Rahmon Eshmatov, Isroil Mo'minov, Ismoil Ollamurodov, Rahmat Rahmonov, Murotqosim Ortiqov, Uzoq Abdurasulov, Egam Musaev, Abulqosim Ortiqov, Jo'ra Rahmonov, Otaqul Sultonov kabi bir yuz yigirmadan ortiq kishi tergovsiz otib tashlandi. Ularning ayrimlarini tiriklay tuproqqa ko'mib yuborishdi. Ko'hnabozordagi qabristondan ikki kuncha ingroq ovozi kelib turdi, biroq biror odam yordamga kela olmadi...

Ko'hnabozorliklarga madadga kelganlar orasida Yamchi, Oqbuloq, Uchma, Ilonchi, Osmonsoy va boshqa qishloq fuqarolari ham bor edi. Forish qishloqlari bir hafta tutab yotdi. Rus soldatlari qo'zg'olonchilardan qo'rqanidan jevachining qirg'iz oshnalarini ham tog'larda ushlab olib o'ldira boshladilar.

This is not registered version of TotalDocConverter
Boshqarilgan o'qimning shunday qaynatilgan, ushbu aslga qalam o'jiz...

* * *

Qormiz erining Jizzaxda ruslar tomonidan dorga osilganini eshitganida uyga kirib yum-yum yig'ladi. Endi bir etak bolani boqish uning zimmasida edi.

Qormiz eriga aza ochib, ustiga ko'k kiydi. Oradan bir necha oy o'tgach esa quruq yig'i bilan ish bitmasligini tushundi. Qo'rg'ondagi uy yondirilgan edi. Demak Mixindagi yozlik uyda hayot kechirishdan bo'lak imkon yo'q edi.

Qormiz o'g'il-qizlarini ergashtirib Mixin qishlog'iga chiqdi. Hovlini o't-o'lanlardan tozaladi. Qizlar hovliga suv sepishdi. Barcha xas-xashaklarni o'g'il bolalar tozalashdi. Toklarda qolgan o'n-o'n besh savat uzumni yerga yoyishdi. Odam qaramaganidan bog'dagi meva-chevalarni qurt-qumursqalar, chumchuqlar yeb ketgan, olma, yong'oqlar yerga tushib yotardi. Ularni bolalar terib olib oshxona chetidagi yog'och qutiga joylashdi. "Qishda hech bo'lmasa qoqi choyga yaraydi-ku", deya o'yladi Qormiz. Jevachining butun avlodi, aka-uka va o'g'illari: Norbek, Islom, Rustam, Doston, Qorabek, Dovul, Sorabeklar ham qo'zg'olonda shatalibliklar bilan birga qatnashdi. Qishloqqa rus soldatlari o't qo'ygan kuni barcha shatalib urug'i har tomon tariqday tarqab ketdi. Ular yillar o'tibgina o'z makonlariga qaytdilar.

Asta-sekin qishloq qayta tiklandi. Odamlar chorva va dehqonchilik bilan shug'ullana boshladi.

Kunlar shu taxlitda o'ta boshladi. Qormiz molxonadagi eridan qolgan ketmon va o'roqlarni o'g'illari bilan o'tkirladi. Bu ishda ayniqsa o'g'li Dovul unga ancha ko'mak berdi. Qizi Ruksatning esa buyi ancha cho'zilib, o'roq o'rishga qo'li kelib qolgandi. Ona-bolalar qo'zg'olon kunlari toqqa haydab yuborgan mollarini qidirishdi. Oradan bir hafta o'tib ikki sigir va uch echkini topib kelishdi. Bir qo'ra moldan qolgani shu edi. Qishi bilan meva-cheva yeb, sut-qatiq ichib kun o'tkazishdi. Bahorda bir echkini so'yishdi. Shu bilan pishiqchilikka yetib olishdi. Bog'dagi tut novdasini ko'tarolmas darajada ko'p hosil soldi. Yil yaxshi keldi. Uzum, olma va yong'oqlar mo'l bo'ldi. Qormizning sochlari qishi bilan qorday oppoq bo'ldi. U endi o'g'il-qizlarini katta qilish tashvishi bilan ovora edi. Qish bo'yi ulardan hech kim xabar olmadi.

Qormiz erining yilini o'tkazish uchun Ko'hnabozorga bordi. Eski hovliga uch erkak, besh ayol to'plandi. AbdurahBmon jevachining amakisi marhumni yodlab Qur'on tilovat kildi.

Qormiz qaytishda o'zi bilan kundoshi Ro'zining bolalarini ham olib ketdi. Ular bu yerda ancha qiynalib qolishgandi. Ro'zi esa oriyat kuchlilik qilib u bilan ketmadi.

Oila asta-sekin tiklana boshladi. Ular hovlidagi daraxtlarni parvarish qilardilar, toklarni sug'orardilar, meva-chevalardan qoq tayyorlardilar.

Hayot shu zaylda davom etdi. Asta-sekin odamlar qishloqqa qaytib kela boshladi. Tabiatning ishi qiziq-da: odam bor joyga qushlar ham yetib keladi. Jevachining farzandlariga ko'nikib qolgan tog' burgutining bolalari ham tez orada bu yerga yetib kelishdi.

Nurota tog'larida yashillik paydo bo'ldi. Dalalardan mollar to'yib qayta boshlashdi. Bolalar kulgusi eshitildi, osmonda varraklar ko'rindi.

Qormiz bolalarning ishlarini ko'rib quvonardi. Ular xuddi otalaridek har bir ishni tirishib, jon-jahdlari bilan ado etardilar. Turli tomonlarga tarqab ketgan odamlar Ko'hnabozor qishlog'ini Sovuqbuloq atrofida qaytadan barpo etishdi

* * *

Oradan yillar o'tdi. Nihoyat Abdujabbor to'qsoba, Abdurahmon jevachining nevara-chevaralari ozodlikka erishishdi. Bugungi kunda yurt osmonida mag'rur tog' burgutlari baland parvoz etmoqda. Bobolari-momolari erkinlikni orzu qilgan Vatanda xalq baxtiyor yashamoqda.

2001 yil. Toshkentga, Mustaqillik bayrami tantanalarida qatnashish uchun yurtimizning turli tumanlaridan mehmonlar kelishgan. Mustaqillik maydonida buyuk Istiqlolning o'n yilligi nishonlanmoqda. Sahnada Vatan haqida qo'shiq kuylanmoqda. Uni Jizzax viloyati Forish tumanidagi 5-maktab musiqa o'qituvchisi Olimjon Davilov ijro etmoqda. U Abdurahmon jevachining nabirasi. Sahnada uning 15 nafar o'quvchi qizlari raqsga tushishmoqda. Osmonda mushakbozlik avjida. Olimjon bobolari orzu qilgan ozodlik haqida jo'shib kuylamoqda. Uning ko'ksida "O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi" nishoni yarqirab turibdi.

Mustaqillikning birinchi yili Olimjon boshchiligida Abdurahmon jevachining nevaralari Samarqand shahBridagi Murod avliyo qabristoniga Ko'hnabozor tuprog'idan olib bordilar va bobolari mozoriga sepdilar. Ular Murod avliyo qabristoni botir, qo'rqmas, Vatan ozodligi uchun jonini qurbon qilgan bobolarining mangu makoniga aylanganini sakson besh yildan keyingina bilishdi.

Kamtarin Ustoz Edi...

...Dunyoda adabiyot bilan yashaydigan fidoyi, ayni paytda o'ta kamtarin insonlar bor. Anvar aka Javlonov shundaylar jumlasidan edi. U kishi bilan qachon uchrashib qolsak, gurungimiz adabiyot haqida bo'lardi. Bir kuni Anvar aka hayajonlanib Jurji Zaydonning Ilhom Sulonov tarjimasidagi "Al-Amin va al-Ma'mun" romani haqida gapirib qoldi. Sezdimki, ustoz al-Xorazmiy haqidagi hikoyalar to'plamiga yangi ma'lumotlar to'plamoqda. Yana bir kuni munaqqid Qozoqboy Yo'ldoshevning "Yoniq so'z" kitobini izlab atay Toshkentga kelganida uchrashib qoldik. Angladimki, ustoz yana bir nimalarni yozishni rejalashtirib turibdi. Afsuski, shafqatsiz o'lim endi oltmish yoshdan oshgan, qalami charxlanib turgan, adabiy orzulari bir olam Anvar Javlonovni oramizdan olib ketdi. Anvar akadan sandiq-sandiq qo'lyozma qoldi. Anvar akadan biri biridan ajoyib hikoyalar, maqolalar, hajviyalar, qissalar qoldi. Anvar akadan oqil farzandlar, shirin-shakar nevaralar qoldi.

Anvar Javlonov o'zining kindik qoni to'kilgan Forish tumani tarixi bilan astoydil qiziqardi. Bizga Jizzax qo'zg'oloni tashkilotchilaridan biri bo'lgan forishlik afsonaviy Abdurahmon jevachi 1916 yilning 25 iyulida osib o'ldirilgani ma'lum edi, xolos. Anvar aka jevachining avlodlarini qidirib topdi, ular bilan suhbatlashdi, ayrim tarixiy ma'lumotlarni qayta-qayta tekshirib ko'rdi. Muallifning o'n yildan ortiqroq davom etgan izlanishlari samarasi o'laroq "Tog' burguti" deb nomlangan tarixiy qissa yaratildi. Mazkur qissa ilk bor o'quvchilar e'tiboriga havola etilmoqda.

Abduqayum Yo'ldoshev